

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

**FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI YO‘NALISHI**

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

**QOBILOVA MALIKA XAMDULLO QIZI
O‘ZBEK TILIDA YUKLAMALARNING DISKURSIV VAZIFASI**

Bitiruv malakaviy ishi

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat
ta‘lim yo‘nalishi**

**Ilmiy rahbar
f.f.d. Pardayev A.**

Samarqand - 2018

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI O'ZBEK FILOLOGIYASI YO'NALISHI

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

Qobilova Malika Xamdullo qizi
O'zbek tilida yuklamalarning diskursiv vazifasi

Bitiruv malakaviy ishi

5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bakalavriat
ta'lim yo'nalishi

Ilmiy rahbar:

f.f.d.Pardayev A.

Rasmiy taqrizchi:

f.f.n. Vafoyeva M.

Bitiruv malakaviy ishi o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2018-yil
___ maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAK himoyasiga tavsiya etilgan
(___-son bayonnoma).

Kafedra mudiri:

f.f.d.Pardayev A.

Bitiruv malakaviy ishi YaDAKning 2018 yil ___ iyundagi yig'ilishida
himoya qilingan va ___ foiz bilan baholangan. (___ -son bayonnoma)

YaDAK raisi:

A'zolari:

Samarqand - 2018

**Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti bakalavri Qobilova
Malika Xamdullo qizining “O‘zbek tilida yuklamalarning diskursiv vazifasi”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishining**

REJASI:

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi.

Mavzuning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari.

Tadqiqotning metodologik asoslari va tadqiq usullari.

Ishning ilmiy yangiligi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.

Ishning hajmi va tuzilishi.

**I BOB. YUKLAMALARINING STILISTIK–PRAGMATIK
XUSUSIYATLARI**

1.1. Yuklamalar va ularning o‘rganilish tarixidan

1.2. Yuklamalar tasnifi va nutqdagi vazifasi

1.3. Yuklamalarda stilistik-pragmatik xususiyatlarning namoyon bo‘lishi

Bob bo‘yicha qisqacha xulosalar

II BOB. YUKLAMALARNING DISKURSIV FUNKSIYASI

2.1. Diskurs haqida ma’lumot

2.2. Yuklamalarning diskursiv vazifasi

Bob bo‘yicha qisqacha xulosalar

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida ma'naviy qadriyatlarimizning tiklanishi, milliy tilimizga davlat tili maqomi berilishi tilimizning voqelanish xususiyatlari va qo'llanish doirasini keng qamrovli bo'lishiga olib keldi. O'zbek tilshunosligida sotsiolingvistika, psixolingvistika, kompyuter lingvistikasi, lingvokulturologiya, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi sohalar yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, filologiya ilmda lingvopragmatika sohasining yuzaga kelishi mazkur yo'nalishdagi yangi termin va tushunchalar doirasi kengayib borishini taqozo etadi. «Bugungi kunda mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash»¹ga alohida e'tibor qaratilgan. Binobarin, mamlakatimizda mustaqillik yillarida o'zbek tilshunosligining uslubiyat sohasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Ayniqsa, funksional uslubiyat sohasida fundamental tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, B.O'rinboyevning so'zlashuv, M.Mukarramovning ilmiy, S.Karimovning badiiy uslub, A.Abdusaidovning gazeta tiliga oid doktorlik dissertatsiyalari, T.Qurbonovning publitsistik, D.Boboxonovanning rasmiy uslubga doir nomzodlik dissertatsiyalari², T.Jo'raevning epistolyar janr, D.O'rinboyevaning so'zlashuv uslubidagi yordamchi so'zlar, A.Pardayevning ko'makchilarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari fikrimizning dalilidir³. Binobarin, bugungi kunga qadar tilshunosligimizda grammatik, jumladan, morfologik vositalari uslubiy

¹ Ш.Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга кураимиз. Тошкент: «Ўзбекистон», 2017. – Б. 17.

²Уринбаев Б. Вопросы синтаксиса узбекской разговорной речи: Автореф.дис. ... д-ра филол.наук. – Ташкент, 1976. – 62 с.; Мукаррамов М. Научный стиль современного узбекского литературного языка в семантико – функциональном аспекте: Автореф.дис. ... д-ра филол.наук. – Ташкент, 1985. – 44 с.; Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол.фан.д-ри. ...дис-яси. – Тошкент, 1994. – 292 б.; Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари: Филол.фан.д-ри. дис. автореф. –Тошкент, 2005. -44 б. Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф.дис. ... канд. филол.наук. – Ташкент, 1987. – 22 с.; Бабахoнова Д. Официально-деловой стиль современного узбекского литературного языка: Автореф.дис. ... канд. филол.наук. – Ташкент, 1987. 18 с.

³ Жўраев Т. Ҳозирги ўзбек адабий тилида эпистоляр жанрининг тил ва услубий хусусиятлари: Филол.фан.номз. ... дис. автореф. – Самарканд, 1994. – 24 б.; Ўринбоева Д. Ўзбек сўзлашув нуткида ўзгармайдиغان сўзлар (ёрдамчи сўзлар): Филол.фан.номз. ...дис-яси. – Самарканд, 1994. – 150 б.; Пардаев А. Ҳозирги ўзбек тилида кўмакчиларнинг функционал–стилистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дис. – Самарканд, 2005.- 156 б.

imkoniyatlari yuzasidan muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da⁴ bu vositalarning funksional uslublararo jilolanishini, ularning nutq jarayonidagi o'ziga xosliklarini qiyosiy o'rganish va diskursiv vazifasini tadqiq etish hamon tilshunosligimizning muhim masalalaridan sanalib turibdi.

Shu nuqtai nazardan, yuklamalarning diskursiv imkoniyatlarini o'rganish ham tilshunosligimizning tadqiq etilishi lozim bo'lgan muammolaridandir. Shu kunga qadar yuklamalarning diskursiv vazifasining yaxlit holda tadqiq etilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunga qadar jahon tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham yuklamalar, ularning so'z turkumlari, xususan, yordamchi so'z turkumlari o'rtasidagi o'rni xususida muayyan tadqiqotlar yuzaga kelgan². Biroq yuklamalarning qo'shimcha ma'no berish kabi asosiy vazifasidan tashqari, nutqiy vaziyatga qarab turli diskursiv vazifani ado etishi borasidagi rang-baranglik ma'no jilolarini berishi boshqa grammatik vositalardan ustun tomonidir.

Bitiruv malakaviy ishida badiiy, rasmiy, ilmiy, ommabop asarlar matnlarida va boshqa o'rinlarda qo'llangan yuklamalar tanlanib, ularning diskursdagi faolligi ochib berildi. Hozirgi o'zbek tilida qo'llanilayotgan yuklamalarning diskursiv xususiyatlari yaxlit tizim sifatida o'rganilib, bir-biriga yaqin, parallel va

⁴ Кўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. 1-қисм. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1975. – 240 б.; Кўнғуров Р. Грамматик стилистика // Ўзбек филологияси. СамДУ асарлари. Янги серия, № 315. – Самарқанд, 1976. 118–126-бетлар; Кўнғуров Р. Олмош стилистикасига оид айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили стилистикасидан кузатишлар. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1981. 4–21-бетлар; Кўнғуров Р. Сифат стилистикаси // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1982. 3–10-бетлар; Кўнғуров Р., Қурбонов Т. Қўмакчилар синонимиясига доир // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1982. 20–41-бетлар; Кўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Ўзбек тилининг функционал стиллари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1984. – 86 б.; Шомаксудов А., Расулов И., Кўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 248 б.; Содикова М. Феъл стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975. – 108 б.; Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси (Грамматика). – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.; Қурбонов Т., Эрназаров Н. Ёрдამчи сўзлар стилистикасига доир // Ўзбек тили грамматик қурилиши масалалари. Илмий тўплам. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1984. 76–81-бетлар; Пардаев З. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол.фан. номз. ...дис.автореф. – Самарқанд, 2004. – 23 б. Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2010. -192 б.

² Базаров О. Частицы в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - М., 1983. - 22 с.; Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. номз. ...дис.автореф. – Самарқанд, 1994. -25 б.; Исоқов З. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро муносабати ва унда юкламаларнинг ўрни: Филол. фан. номз. ...дис.автореф.–Фарғона, 2005.-22 б.

vazifadoshlik vaziyatida turgan bu til birliklarining o‘zaro sinonimik holatlari, uslublararo qo‘llanish imkoniyatlari pramalingvistik yo‘nalishda tahlil qilindi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. O‘zbek tili uslubshunosligining bugungi bosqichida tildagi har bir grammatik vosita o‘zining uslubiy bahosini olayotganligi sababli, ushbu malakaviy bitiruv ishida o‘zbek tilidagi yuklamalarning diskursiv yo‘nalishda tadqiq etish maqsadi ko‘zlandi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etish nazarda tutildi:

- o‘zbek tilshunosligida yuklamalarning grammatik xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarni o‘rganib chiqish va unga munosabat bildirish;

- yuklamalarning muloqot jarayonidagi pragmatik-stilistik mohiyatini ochib berish;

- yuklamalarni diskursda nutqiy ta’sirchanlik vositasi sifatida boshqa grammatik vositalardan ustunlik jihatlarini tavsiflash va shundan kelib chiqib, ularni maqsadga muvofiq tarzda tanlash va foydalanish yo‘llarini tahlil etish;

- ushbu lisoniy birliklarning nutq jarayonidagi emotsional-ekspressiv ma’no othenkalarini aniqlash va diskursdagi faolligini aniqlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- o‘zbek tilshunosligida yuklamalarning diskursiv vazifasi yaxlit xolda ilk bor o‘rganildi.

- bugungi kunda o‘zbek tilining kommunikativ-pragmatik imkoniyatlarining kengayib borayotganligi, ayniqsa, so‘zlashuv nutqining o‘ziga xos kommunikativ funksiyasining kuchayishiga yuklamalarning alohida xizmati yuzaga kelayotgani sababli bu birliklarning grammatik-stilistik imkoniyatlarini yanada chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga kelganligi asoslandi;

- keyingi yillarda yuklamalarning nutq jarayonidagi ta’sirchanlikni oshirishda muhim uslubiy vosita ekanligi dalillandi;

- yuklamalar sinonimiyasi ham o‘rganilib, qo‘shimcha ko‘rinishidagi yuklamalarning so‘z-yuklamalar bilan, funksional yuklamalarning sof yuklamalar bilan ham ma’nodoshlik munosabatida bo‘lishi yoritildi.

- yuklamalarning diskursiv vazifasi nafaqat soʻz maʼnosiga, balki gap strukturasi va mazmuniga ham taʼsir qilishi dalillandi.

Tadqiqotning manbai va materiali sifatida hozirgi oʻzbek yozuvchilari va shoirlarining badiiy asarlaridan, davlat hujjatlaridan, matbuot materiallaridan 500 dan ortiq misollar tanlab olindi. Shuningdek, tahlil jarayonida yuklamalarning uslubiy imkoniyatlarini aniqlash hamda nutqdagi qoʻshimcha maʼno ifodalash xususiyatlarini oʻrganishda turli leksikografik manbalar, xususan, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”, “Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati” kabilardan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va tadqiq usullari. Tadqiqotning metodologik asosi dialektikaning bilish nazariyasidir. Ishda semantik-uslubiy hamda matniy tahlil metodlaridan ham keng foydalanildi. Shuningdek, tilshunos olimlar V.Vinogradov, M.Kojina, A.Shomaqsudov, R.Qoʻngʻurov, A.Hojiyev, B.Oʻrinboyev, Yo.Tojiyev, M.Mukarramov, A.Mamajonov, I.Toshaliyev, E.Qilichev, T.Rustamov, S.Karimov, B.Yoʻldoshev va boshqa mualliflarning shu yoʻnalishda olib borgan ishlaridagi tadqiq metodlariga ham asoslanildi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. Ushbu tadqiqot natijalari kommunikativ tilshunoslik, ayniqsa, uning muhim sohasi boʻlgan kommunikativ stilistikaning rivojiga, lingvopragmatikaga maʼlum darajada hissa qoʻshadi. Tadqiqot oʻzbek tilshunosligida yuklamalarning semantik strukturasi va uslubiy xususiyatlarini yaxlit tizim sifatida maxsus oʻrganish borasidagi ilk urinishlardan biri boʻlib, u shu yoʻnalishdagi boshqa tadqiqotlarga yoʻl ochadi. Shuningdek, bu ish kelgusida oʻzbek tilshunosligida yuklamalarning maʼnoviy guruhlari, ularning paradigmatic va sintagmatik munosabatlari, semantik strukturasi va uslubiy xususiyatlariga oid monografiyalar va oʻquv qoʻllanmalari yaratish uchun material boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Ishning amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan boshqa yordamchi soʻzlarning funksional-stilistik xususiyatlarini tadqiq etishda foydalanish mumkin. Malakaviy bitiruv ishi materiali uslubshunoslik, nutq madaniyati, matn tilshunosligining turli sohalariga oid maxsus kurslar, seminarlar tashkil qilish va

amaliy mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanmalari yaratishda manba bo'lib xizmat qiladi.

Ishning sinovdan o'tishi. Malakaviy bitiruv ishi Samarqand Davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi va hajmi. Ish "Ishning umumiy tavsifi", ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 63 sahifani tashkil etadi.

I BOB

YUKLAMALARINING STILISTIK–PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

1.1. Yuklamalar va ularning o‘rganilish tarixidan

Yuklamalar gap yoki uning alohida bo‘laklariga har-xil emotsional-ekspressiv mazmun berish uchun qo‘llaniladi. Ularning matndagi vazifasi - so‘zlovchining matn mazmuniga nisbatan munosabatini bildirish, e‘tiborni tortishdan iboratdir.

Aytish mumkinki, o‘zbek tilshunosligida yuklamalarning o‘rganilishiga oid ko‘plab ma‘lumotlar mavjud. Yuklamalar ham tilshunoslarning doimiy e‘tiborida bo‘lgan grammatik vosita bo‘lib, bu boradagi tadqiqotlar davom etmoqda. Yuklamalar tadqiqi yuzasidan dissertatsiyalar himoya qilingan³, qator maqolalar e‘lon qilingan.⁴ Bu boradagi faktik ma‘lumotlar A.Pardayevning «Til tizimida yordamchi so‘zlar» monografiyasida keng va batafsil tahlil qilingan.⁵

Quyida o‘zbek tilshunosligida yuklamalarning diaxron va sinxron aspektda o‘rganilishiga e‘tibor qaratamiz.

Yuklamalar tilimizda tarixan qo‘llanishda bo‘lgan vositalar hisoblanadi. Masalan, S.Mutallibov «Devonu lug‘otit turk»da uchrovchi yuklamalar ikki xil bo‘lganini aytgan: 1. Ilgaridan tilda yuklama vazifasida qo‘llanib kelayotgan

³ Базаров О. Частицы в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - М., 1983. - 22 с.; Рахимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. номз. ... дис.автореф. – Самарканд, 1994. -25; Қожиев А. Қозирги ўзбек адабий тили боғловчилари қалъида мулоқазалар // ЎТА, 1986, №2. –Б. 51-56

⁴ Аҳмедов А. -*ми* юкласи ва унинг қўлланишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1961.№3.-Б.45-49; Шукуров Ш. Юкламалар тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 1963.№2.-Б.37-40; Фармонов И. Ўш шеvasида -*ла* юкласи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1958.№2.-Б.45-47; Содикова М. Ўзбек тилида кучайтирув воситалар(*жуда, бир, зоят, ҳам...* юкламалари ва б. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974.№1.36-40; Бозоров О. Ўзбек тилининг юклама категорияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1977.№2.-Б.24-28; Йўлдошева Х. Сўроқ юкламалари ва жумла ургуси» // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983.№4.-Б.63; Расулов Р. *Хоҳ...*, *хоҳ* ёрдамчисининг семантик-грамматик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1984.№5.- Б.44; Солихўжаева С. Экспрессив-эмоционал гапларнинг ҳосил бўлишида баъзи юкламаларнинг роли // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986.№1.-Б.59; Рахимов У. *Ҳам* юкласининг пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994.№3.-Б.58; Абдуллаева Н. “Маҳбуб ул-қулуб”да юкламалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002.№3.-Б.58; Шаҳобиддинова Ш., Исоқов З. Матн ва уни боғловчи воситалардан бири (юклама ҳақида) // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004.№6.-Б.75.

⁵ Пардаев А.Б. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар. – Самарканд: СамДУ нашри, 2011. 117-134-бетлар.

yuklamalar *-chi, gina, -o‘q* kabi, 2. Ilgari biror mustaqil so‘z turi bo‘lgani holda, so‘ng yuklama funksiyasiga ko‘chganlar: *yolg‘iz, ilal* kabi.⁶

Eski o‘zbek tilida qo‘llangan yuklamalar haqida, aniqrog‘i XIII-XIV asrlarga oid yozma yodgorliklarda uchrovchi yuklamalar haqida qimmatli ma‘lumot bergan olim – A.Ibrohimovadir. U bu davrdagi yuklamalarni ikki guruhga ajratadi: 1) affiks ko‘rinishida bo‘lgan sof yuklamalar; 2) mustaqil so‘z shakliga ega bo‘lgan funksiyadosh yuklamalar. A.Ibrohimova sof yuklamalar sifatida *–mu//–mi, –qi:na/–kina//–g‘i:na/–gina, –oq/θk* yuklamalarini ko‘rsatadi.⁷ Olima XIII-XIV asrlardagi turkiy yozma yodnomalarda qo‘llanilgan *ma* (bu so‘z asli bog‘lovchi), *emə* (bog‘lovchi), *ush* (olmosh), *taqi/daqi/dahi* (bog‘lovchi) kabi funksional yuklamalarni ko‘rsatadi. Bundan tashqari, *magar, kashke, illa, hatta, bale, axir, bas, ham, alqissa, almaqsud, filjumla* kabi fors-tojik va arab tillaridan o‘zlashgan yuklamalarni ham tahlil qilgan.⁸

«Yuklamalar - deb yozadi J.Hamdammov, - turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida boshqa turkumlardagi so‘zlarga nisbatan keyinroq (lekin bog‘lovchilardan oldinroq) paydo bo‘lgan grammatik kategoriya bo‘lib, ular modal so‘zlar bilan qo‘shimchalar orasidagi joyni egallaydi. Yuklamalarning ko‘pchiligi ot, fe‘l, olmosh, ravish kabi mustaqil ma‘noli so‘zlardan kelib chiqqan deb hisoblaydi. Binobarin, eng qadimgi turkiy tilda grammatik jihatdan rasmiylashgan, alohida turkum bo‘lib ajralib chiqqan yuklamalar yo‘q edi. Ba‘zi ot va fe‘llar yuklama vazifasini ham bajarar edi. Turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi turk va o‘rta turk davrlariga kelib yuklamalar alohida so‘z turkumi sifatida ajralib chiqqa boshladi. Ularning asosiy qismi turkiy tillarning o‘z ichki imkoniyatlari hisobidan, boshqa bir qismi o‘zlashma yuklamalar hisobidan boyib bordi».⁹

J.Hamdammov o‘zbek tilida tarixan ishlatilib kelgan yuklamalarni qo‘llanish o‘rniga ko‘ra ikki guruhga: postpozitiv yuklamalar va prepozitiv yuklamalarga bo‘lgan. 1.Postpozitiv yuklamalar: 1) affiks-yuklamalar *–mu//–mi, –g‘i:na/–ginə/–*

⁶ Муталлибов С.М. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк (XI аср ёзма ёдгорликлари асосида) – Т.: ЎЗФА нашриёти, 1959. 125-126-б.

⁷ XIII – XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили (Морфология). – Т.: Фан, 1986. 264-267-б.

⁸ XIII – XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили. 268-271-б.

⁹ Хамдамов Ж. Ко‘rsatilgan asar, 86-б.

qi:na/-kinə, -oq/Ok, -chu/chy, -chi/chy, -la/lə; 2) soʻz yuklamalar *-ma, eme, taqy/daqy, ham* biriktiruvchi bogʻlovchilari, *ush* olmoshi kabi funksional yuklamalar. 2. Soʻz yoki gapning oldidan keladigan prepozitiv yuklamalar mustaqil, alohida soʻz shakliga ega boʻlib, ular turkiy tillarga tegishli boʻlmay, arab, fors tillaridan oʻzlashtirilgan soʻzlardir. Bular quyidagilar: *balki(m), hattā, gʻθyā/gʻθyāki, mægər, kāshki, hamānā, shāyad / shāyad kim, āxir, illā, bas, balə, erkən / erkin / ekən, ermish / emish, kerək, alqissa* kabilar.¹⁰

1.2. Yuklamalar tasnifi va nutqdagi vazifasi

Hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi yuklamalarni Sh.Shoabdurahmonov maxsus tadqiq etgan. O.Bozorov «Oʻzbek tilida yuklamalarning semantik-funksional xususiyatlari» nomli nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.¹¹ O.Bozorov ushbu nomzodlik dissertatsiyasida yuklamalar sirasiga quyidagilarni kiritadi: *-ki, -da, -u(-yu), ham, -ku, -mi, -chi, -a(-ya), balki, emas(mas), faqat, esa, boʻlsa, na...na, tugul, negaki, sababki, nega desang, boʻlmasa, yoʻqsa, aksincha, -oq(-yoq), -gina, -dir, -gin, -in, -cha, qip-, yop-, (yap-), kap-, xolos, naq, ayni, qoq, zora, shoyad, koshki, koshki edi (koshkiydi), qani endi, qani edi (qaniydi), ishqilib, hatto, aqalli (loaqal), nahot, nahotki, oxir, yana, tagʻin, to, agar, mabodo, basharti, bordi-yu, garchand, garchi, goʻyo, xuddi, bamisoli, albatta, baribir, demak, xullas, aytmoqchi, aytganday, aytgandek, ayniqsa, xususan, atigi, nihoyati, avvalo, avvali, avvalambor, hech, sira, aslo, mutlaqo, zinhor, juda, eng, gʻoyat, nihoyatda, oʻlgur, tushgur, tushmagur, qurgur, boʻlgani, boʻladimi, boʻlsa ham, boringki, qoʻyingki, qoʻying-chi, kel (ke), keling, kelinglar, kelib-kelib, deyman, degin, deng, aytgin-aytgin, bildingmi, bilasizmi, yolgʻiz, naq, yaxshisi, bir, birinchidan, ikkinchidan, kimsan, mana, ana, bu, shu, nima, qani, oʻzi, qanday, -e(e), -ay, -ey, ha, xayriyat, xayriyatki, xoʻsh, asli (aslida), afsus (afsuski), taajjub (taajjubki), bor, yoʻq, bormi, bor-yoʻgʻi, tim, liq, lim, gʻirt, qir, shir, gʻarq, jiqqa.*

¹⁰ Хамдамов Ж. Коʻrsatilgan asar, 87-93-b.

¹¹ Базаров О. Частицы в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - М., 1983. - с. 7-8

Bu borada yana Z.Isoqov ham tadqiqot olib borgan. U «O‘zbek tilida so‘z turkumlarining o‘zaro munosabati va unda yuklamalarning o‘rni» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. U yuklamalar sirasiga *-ki, -ku, -da, -u(-yu), ham, -mi, -chi, -a(-ya), faqat, na... na, tugul, -oq(-yoq), -gina, -dir, -gin, qoq, aqalli, nahot, nahotki, agar, mabodo, basharti, atigi, nihoyati, tim, liq, lim, g‘irt, g‘arq, jiqqa, -jon, -oy, -xon, -bek, -poshsho, - bonu, xuddi, naq, naqadar* kabilarni kiritib, quyidagi semantik guruhlariga ajratadi: 1) kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari: *-ki, -da, -u(-yu), -a(-ya), aqalli, ham, -ku, naqadar, atigi, nihoyati, tim, liq, lim, g‘irt, g‘arq, jiqqa*; 2) ayiruv yuklamalari: *faqat, -gina*; 3) taajjub yuklamalari: *nahot, nahotki*; 4) shart yuklamalari: *agar, mabodo, basharti*; 5) sub’ektiv baho yuklamalari: *-jon, -oy, -xon, -bek, -poshsho, -gin*; 6) inkor yuklamasi: *na... na, tugul*; 7) so‘roq yuklamalari: *-chi, -mi*; 8) aniqlov yuklamalari: *xuddi, naq, qoq*; 9) gumon yuklamasi: *-dir*.¹² Olim yana «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da (1981) yuklama sifatida berilib, boshqa ilmiy manbaalarda uchramagan *e, xo‘sh, ha, ey, bu, bor-yo‘g‘i, ana, oriy, tugul, aksincha, xolos, yana, tag‘in, zora, zoraiki* kabi yuklamalarni sanaydi va lug‘atdagi *o‘z, qani, shu, mana, kimsan, bir, ayni, aqalli, qoq* kabi so‘zlarni yuklamamalik xususiyatlarini tahlil qiladi.

Sh.Shahobiddinova *-jon, -xon, -oy, -cha, -chak-(a)loq, -choq* kabilarni yuklamalar qatoriga qo‘shish mumkinligini aytgan.¹³

Yuklamalar rus tilshunosligida ham batafsil o‘rtanilgan. Bu borada T.M.Nikolaevaning yuklamalar tadriji borasidagi monografiyasidan keng ma’lumot olish mumkin. Bu so‘zlar xususida M.Lomonosov ham to‘xtalib o‘tgan. A.Shaxmatov yuklamalarni sintaktik ob’ektda o‘rganish tarafdori bo‘lgan. V.Vinogradov yuklamalarni ekspressiv–stilistik funksiyalariga alohida urg‘u bergan. U yuklamalar qatoriga yana bog‘lovchilarni, predloglarni ham so‘zlarni kiritgan. F.F.Fortunatov ham yuklamalarning sintaktik xususiyatiga alohida e’tibor qaratgan. Rus tilshunosligida asosan yuklamalar bahsida A.Shaxmatov va F.Fortunatovlar fikri tayanch hisoblanadi. XX asrda turkologiyada ham yuklamalar

¹² Исоков З.С. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро муносабати ва унда юкламаларнинг ўрни: Филол. фан. номз. ... дис.автореф. – Фарғона, 2005. 14-б.

¹³ Шаҳобиддинова Ш. Айрим кўшимчаларнинг мавқеи хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2000. №5. – Б.27.

tadqiqot ob'ektiga aylangan. Jumladan, F.Kenjebaeva qozoq tilidagi, F.Zeynalov ozarbayjon tilidagi, K.Amiraliev qozoq va qoraqalpoq tilidagi, K.Axmerov boshqird tilidagi yuklamalarni tadqiq etgan.¹⁴

Umuman, yuklamalar barcha ilmiy manbalarda so'zlarga yoki gapga so'roq, ta'kid, kuchaytirish, ayirish, chegaralash, o'xshatish, qiyoslash kabi qo'shimcha modal ma'no beruvchi yordamchi so'zlar deya talqin etilgan.

O'zbek tilshunosligida bugungi kunda yuklamalar tuzilishiga ko'ra ikki xilga ajratilgan: 1) qo'shimcha shaklidagi yuklamalar; 2) so'z shaklidagi yuklamalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili darsliklarida yuklamalar quyidagicha tasnif qilingan:

1. So'roq va taajjub yuklamalari: *-mi, -chi, -a(-ya)*.
2. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari: *-ku, -u(-yu), -da, -oq(-yoq), -ki, -kim, axir, hatto, hattoki, nahot, nahotki, tim, shir, g'irt, liq, lim, g'raq, jiqqa*.
3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: *-gina (-kina, -qina), faqat, faqatgina, yolg'iz*.
4. Aniqlov yuklamalari: *xuddi, naq*.
5. Gumon yuklamasi: *-dir*.
6. Inkori yuklamasi: *na... na*.

Xullas, hozirgi o'zbek tilida yuklamalar matnga qo'shimcha emotsional-ekspressiv jilo berishga xizmat qiluvchi muhim vositalardir.

1.3. Yuklamalarda stilistik-pragmatik xususiyatlarning namoyon bo'lishi

Istiqlol tufayli o'zbek tili stilistikasi va pragmatiksini ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganishga keng imkoniyatlar yaratildi. Dastlab yuklamalarning stilistik xususiyatlariga to'xtalamiz. E'tirof etilishicha, o'zbek tili uslubshunosligini o'rganish XX asrning 40-50-yillaridan boshlangan bo'lsa ham, uning nazariy asoslari va amaliy jihatlarini birmuncha batafsil ishlab chiqish 70-

¹⁴ Kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Пардаев А. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. –Б.117-134

yillarning o'rtalarida boshlanganligi umuman, XX asrda o'zbek uslubshunosligida erishilgan yutuqlar S.Karimovning dissertatsiyasida batafsil izohlangan.²

O'zbek uslubshunosligida yuzaga kelgan tadqiqotlar orasida morfologik stilistika sohasida olib borilgan kuzatishlar ham alohida o'rin tutadi. Grammatik vositalarning stilistik imkoniyatlari chegaralangan, degan fikrni bildirgan rus tilshunoslari V.V.Vinogradov, A.M.Peshkovskiy va o'zbek uslubshunosi R.Qo'ng'urovlar keyinchalik bu fikrlarini o'zgartirishgan. Chunki, o'zbek tili materiali morfologik ko'rsatkichlarda ham stilistik imkoniyatlarning kengligidan dalolat beradi. Yuqoridagi olimlarning bildirgan fikrlari morfologik vositalarni tilning sintaktik imkoniyatlari bilan qiyoslab aytilgan, deb xulosalash mumkin. Umuman, morfologik stilistika sohasida erishilgan yutuqlar bilan birga, amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar bisyor.

Vaholanki, bu sohaning dunyo tilshunosligida yirik mutaxassisi bo'lgan V.Vinogradov milliy til stilistikasi tilning tovush tuzilishini ham, grammatikasi, lug'ati, frazeologiyasini ham qamrab olishligini, biroq u ma'lum til hodisasini tarixiy taraqqiyotdagi yaxlit til qurilishining ichki bog'langan elementlari sifatida emas, faqat funksional differentsiatsiya, u yoki bu darajada bir xil bo'lgan ma'no ifodasida bir-biriga yaqin, muvofiq, parallel yoki sinonimik vositalarning o'zaro munosabati va ta'siri hamda turli nutqiy hodisalar ekspressiv ma'no va ottenkalarining mos kelishi nuqtai nazaridan qarab chiqishini; boshqa tomondan esa, stilistika bu hodisalarni nutqiy muomalaning alohida shakllari yoki alohida ijtimoiy chegaralangan tiplari va ko'rinishlari bilan aloqadorligi nuqtai nazaridan o'rganishini ta'kidlab o'tgan edi.

Shuning uchun ham o'zbek tilshunosligi, xususan, uning stilistikasi taraqqiyotining bugungi bosqichida tildagi har bir grammatik vosita o'zining stilistik bahosini olishi kerak degan fikr ilgari surilmoqda.

Masalaning bu tarzda qo'yilishi o'zbek tilidagi yuklamalarni ham funksional-stilistik yo'nalishda o'rganishning yo'llari va usullarini belgilab olish

² Qarang: Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фан. док. ... дис. – Тошкент, ТАИ, 1994. –Б.10-60.

zaruriyatini keltirib chiqardi. Tilshunoslikdagi tahlil metodlari sifatida qaraladigan bu yo‘l va usullarini esa shu sohaning yirik vakillari aytgan fikrlardan topsa bo‘ladi. Jumladan, M.N.Kojina: «Eng umumiy ma’noda stilistikani nutqiy ta’sirchanlik vositalari hamda bayonning mazmuni, maqsadi va muomala doirasiga bog‘liq holda til birliklaridan bir qadar maqsadga muvofiq foydalanish shart qilib qo‘yilgan tilning amal qilish qonuniyatlari haqidagi lingvistik fan sifatida ta’riflash mumkin. Bunda, eng avvalo, xizmatga doir, ilmiy, badiiy, publitsistik, maishiy kabi bir qolipdagi va sotsial ahamiyatli bo‘lgan muomala sohalari ajralib turadi», degan edi.

I.Rasulov esa bu haqda quyidagilarni yozgan: «Milliy til stilistikasining mundarijasi birmuncha keng bo‘lib, u tilning barcha stilistik sistemasini tekshiradi. Bu stilistik sistema stillardan tashqari, tilning yozma va og‘zaki formalarini, adabiy va so‘zlashuv nutq ko‘rinishlarini ham o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, stilistika til birliklaridan qaysi biri u yoki bu stilda, yozma yoki og‘zaki nutqda ko‘proq ishlatiladi, degan masala bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari, stilistikaga fikr va maqsadni ifodalashda, til vositalarining to‘g‘ri tanlangani yoki tanlanmaganligini aniqlash hamda shu til vositalarini maqsadga muvofiq tanlash va ishlatish yo‘llarini belgilash vazifalari yuklatiladi»¹.

Demak, yordamchi so‘zlarni ham stilistikaning predmeti va ob’ekti sifatida qarab, ularni tadqiq qilish jarayonida nafaqat grammatik birlik, balki nutqiy ta’sirchanlik vositasi sifatida qarash va shundan kelib chiqib, ularni maqsadga muvofiq tarzda tanlash va foydalanish yo‘llarini tahlil etish, bir-biriga yaqin, muvofiq, parallel va sinonimik vaziyatda turgan yordamchi so‘zlarning o‘zaro munosabatini aniqlash va stilistik pozitsiyada turib tahlil etish, yordamchi so‘zlarga funksional differentsiatsiya, ya’ni vazifaviy chegaralanganlik nuqtai nazaridan munosabatda bo‘lish kabi vazifalarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida «Stilistika – tilda mavjud bo‘lgan barcha vositalar – leksik, grammatik, fonetik vositalardan nutqda qanday

¹Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. –С.67.

foydalanish zarurligini, ma'lum bir tipdagi forma, so'z va konstruksiyalardan qaysi birini qo'llash muvofiq ekanini, yaxshi va eng muvofiq vositasini tavsiya etadi, norma qilib belgilaydi, nutqning turli stilistik qatlamlarida qo'llanadigan vositalarni belgilab beradi. Shunga ko'ra, stilistika so'z san'ati, ifoda vositalari haqidagi alohida bir fandır», degan mulohazalar ham yodda saqlanadi¹.

Lingvostatistik metoddan foydalanilgan holda yuklamalarning funksional uslublar doirasida qo'llanilish darajasini aniqlash maqsadida kuzatishlar olib borildi. Buning uchun barcha uslublar bo'yicha hajmi bir xil bo'lgan matnlar tanlandi. Tanlangan matnlardagi yuklamalar belgilanib, hisoblab chiqildi. Natijada yuklamalarning funksional uslublarda qo'llanish chastotasi aniqlandi. Kuzatishlar natijasiga ko'ra, ba'zi yuklamalarning barcha uslublar uchun betarafligi aniqlandi. Ayrim yuklamalar yoki ularning sinonimlari ma'no nozikliklari bilangina u yoki bu uslub doirasida xoslanishi kuzatildi. Shuningdek, funksional uslublar leksik tabiatining bir-biriga yaqinligi, jumladan, ilmiy va rasmiy, badiiy va ommabop uslublarning so'z qo'llash jihatidan o'xshashligi ba'zi yuklamalarning uslublararo neytralligini keltirib chiqaradi.

Grammatik shakllar o'rtasidagi sinonimik munosabatlar esa o'zbek tili nutqiy imkoniyatlarining kengligidan, til elementlari qo'llanishidagi farqlanishlar, nozikliklar, ya'ni funksional chegaralanishlar ona tilimiz uslubiy ko'laminig yana ham ortib borayotganligidan dalolat beradi. Demak, yuklamalar sinonimiyasi masalasini ham tahlil jarayonida diqqat-e'tiborda tutish lozim bo'ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek tilidagi grammatik vositalarning juda katta qismi, jumladan, yuklamalar ham uslubiy bo'yoqqa va tasviriylikka, sinonimiya va variantlarga egaligi ma'lum. Bu esa ularni nutqiy vaziyat talabi bilan tanlab ishlatish va shu orqali ma'no nozikliklarini farqlash, bir mazmuni ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lgan bir necha grammatik vositalar bilan ifodalash sabablarini topish va qonuniyatlarini belgilash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

¹ Абдурахмонов Ф. Стилистик нормалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. - №6. -Б.50.

Qo‘shimcha ko‘rinishidagi yuklamalar sinonimiyasi. Qo‘shimcha ko‘rinishidagi yuklamalar sirasiga *-mi*, *-chi*, *-a*, *-ya* so‘roq va taajjub yuklamalari, *-ku*, *-u(-yu)*, *-da*, *-oq(-yoq)*, *-ki*, *-kim* kabi kuchaytiruv va ta‘kid yuklamalari, *-gina* (*-kina*, *-qina*) kabi ayiruv va chegaralov yuklamalari, *-dir* gumon yuklamasini ko‘rsatishimiz mumkin. Ushbu bobda ana shu yuklamalarning o‘zaro va boshqa grammatik vositalar bilan sinonimik aloqasini ko‘rib o‘tamiz.¹⁵

-MI. So‘roq mazmunini ifodalaydi. A.Ahmedov bu yuklamaning kelib chiqishini shunday izohlaydi: «*-mi* yuklamasining etimologiyasi juda aniq emas. Fin turkolog olimi G.I.Ramstedtning ko‘rsatishicha, turk tillarida qadim «nima» ma’nosini *mi* olmoshi mavjud bo‘lib, bu yuklama shu olmoshdan kelib chiqqan. Bizning taxmin qilishimizcha, *-mi* yuklamasi va uning turli variantlari turkiy tillardagi *na//ne//ni* (nima) so‘roq olmoshidan hosil bo‘lgan. Turkiy tillarda *n//m//b//p* va *a//e//u//i* - ma’lum hodisa, izohni talab qilmaydi. *-mi* elementi dastlab *na//ne//ni* so‘roq olmoshi bilan bir xil formaga ega bo‘lgan, ya’ni *na//ne//ni* so‘roq olmoshi o‘z shaklini o‘zgartirmagan holda, so‘roq ob’ektini bildiruvchi so‘zdan so‘ng qo‘llanib, yuklama vazifasini bajargan ... *-mi* elementi va uning turli variantlari, taxminimizcha, turkiy tillardagi *na//ne//ni* (nima) so‘roq olmoshidan hosil bo‘lgan.»¹⁶

Bu yuklamani so‘zlashuv nutqida *-ma* shakli ham qo‘llaniladi: *ko‘rdingma*, *aytdingma* kabi. Ba’zi shevalarda *-ba* tarzida uchraydi: *ayttingba*, *ko‘rdingba* shaklida.

-mi so‘roq ma’nosini yuzaga keltirishiga ko‘ra *-a* yuklamasi bilan o‘zaro ma’nodoshlik munosabatida bo‘ladi. *Masalan:* - *G‘irromlik qilmasin-da*, *bo‘lmasa!- dedim chiyillab.* - *Nega zuvlamaydi?- O‘lib qoldingmi shu bilan?..*(O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari). Qiyoslang: - *O‘lib qolding-a shu bilan?.. -Mi* yuklamasi bilan hosil qilinayotgan so‘roq mazmunida xayrixohlik

¹⁵ Yuklamalarning turli grammatik vositalar bilan ma’nodoshligi xususida A.Pardayevning «Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили» номли (Тошкент, Фан, 2013) монографиясида ham so‘z yuritilgan bo‘lib, bu o‘rinda ushbu ishda etibordan chetda qolgan tomonlar qamrab olingan.

¹⁶ Аҳмедов А. –ми юкламаси ва унинг қўлланишига доир// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1961. - №3. – Б.45-49.

orqali piching, ya'ni «o'lib qolmasding» mazmunidagi kesatq ifodalansa, *-a* yuklamasi vositasida shakllangan so'roq mazmunida shu holatni tasdiqlash va shu tasdiqqa tinglovchini (suhbatdoshni) ham ko'ndirish kabi pragmatik hosila ma'no ifodalanadi. Yoki: *Hay-hay-hay! Qo'rqadi medalingdan!* (O'.Hoshimov) matnidagi *-mi* yuklamasini *-a* bilan almashtirsak (*"Ie, onaxon, siz Qahramonsiz-a? O'nta bola tuqqansiz-a, marhamat, kiring! — deydi*) so'roq mazmuni saqlanib qoladi, ammo *-a* yuklamasi bilan hosil qilingan so'roqdan shu narsa ma'lumki, tinglovchi uning qahramonligini, o'nta bola tuqqanligini biladi, chunki *-a* yuklamasi semasida uning bilishiga ishora bor. *-mi* yuklamasi qo'llangan o'rinda bu mazmun yo'q. Bu holat mazkur yuklamalarning xususiy jihatdan semantik farqlanishini ko'rsatadi.

Mana bu matnda *-mi* yuklamasi *-dir* bilan ma'nodosh bo'lishi mumkin: *Ertasiga choy ustida oyim vahimali xabarni dadamga aytib berdi: - Zebi opa sho'rlik bir holatda yotibdi. Ajina ko'rdim, deydi. Og'zidan olov sochib bechoraga daf qilganmish. Yo ko'ziga ko'ringanmi...* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Yo ko'ziga ko'ringandir...* kabi.

So'roq mazmunini hosil qilishda *-mi* yuklamasi *-chi* bilan ma'nodosh bo'ladi: *Kamera oldida aktyor tayyor matn qolib, "holat" deganlari bahona, og'ziga kelganini valdirayveradi. "Nega so'zimni buzasan?" deya da'vo qilib ko'ring-chi, rejissyori vishillab yuboradi: "Da kakaya raznitsa! Hey, bu yoqqa o'tib turing siz, ishga xalal beryapsiz!"* (E.A'zam). Qiyoslang: *...deya da'vo qilib ko'ring-mi*, Yoki *O'zing-chi?* *O'zingning ham o'sha bo'shang, omadsiz oshnangdan farqing qolmagan, Farhod Ramazon! Mana, necha yil bo'ldiki, mansab kursisiga mahkam yopishib olgansan, arzirli biror nima yozganing yo'q.* (E.A'zam). Qiyoslang: *O'zing-mi?* Bu ma'nodoshlik bir oz semantik jihatdan farqlanadi. Binobarin, *-chi* so'roq mazmuniga qo'shimcha ta'kid ohangini yuklaydi, *-mida* esa bunday emas. *-mi* da ehtimollik ottenkasi seziladi.

-mi yuklamasi bog'lovchiga ko'chganda *goh... goh, yo...yo, yoki..yoki* ayiruv bog'lovchilari bilan ham ma'nodoshlik munosabatini yuzaga keltiradi. Masalan: 1) *goh...,goh* bilan: *Tank zirxiga oskolkalarmi, toshlarmi charsillab urilayotganini*

his etib turardim. (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Tank zirxiga goh oskolkalar, goh toshlar charsillab urilayotganini his etib turardim.* 2) *yo...yo* bilan: *Mabodo Tangri marhumlarga qayta jon ato qilsayu onalar tirilib qolsa, hayot paytida mehr berganmi, bermaganmi - baribir farzandlarini maqtab gapirgan bo'lardi.* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Mabodo Tangri marhumlarga qayta jon ato qilsayu onalar tirilib qolsa, hayot paytida mehr bergan yo bermagan - baribir farzandlarini maqtab gapirgan bo'lardi.* Bu matnlarda ayiruv bog'lovchilar ikki holatdan biriga aniq ishora qilsa, –mi yuklamasi qatnashgan o'rinda qo'shimcha taxmin yoki gumon ottenkasi seziladi.

Ba'zan matnda ikki yoki undan ortiq –mi yuklamasi yordamida bog'lanayotgan uyushiq bo'laklarni bitta yoki bog'lovchisi bilan almashtirish mumkin. Masalan: - *Mabodo avlodidan o'g'rimi, nashavandmi chiqmaganmi?* - *Beixtiyor og'zimdan onamning savoli chiqib ketdi.* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: - *mabodo avlodidan o'g'ri yoki nashavand chiqmaganmi? Shunda kichik akammi, menmi birontamiz cho'nqayib uning orqa oyoqlaridan mahkam ushlab turishga majbur bo'lardik.* O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Shunda kichik akam yoki men birontamiz cho'nqayib uning orqa oyoqlaridan mahkam ushlab turishga majbur bo'lardik* kabilar.

-mi yuklamasi *xoh...xoh* ayiruv bog'lovchisi bilan ham ma'nodosh bo'la oladi. Masalan: *Katta uzumzori bo'lardi. Shibilg'oni deysizmi, shakarangur deysizmi, echkiemarmi - hammasi shu bog'da bo'lardi.* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *xoh shibilg'oni, xoh shakarangur, xoh echkiemar - hammasi shu bog'da bo'lardi.*

Umuman, -mi yuklamasi muloqot jarayonida faol qo'llanilib, uslubiy-pragmatik ma'nolarni yuzaga keltiradi.

-chi. -chi yuklamasi jumladagi ta'kid, buyruq, so'roq, do'q, iltimos, xohish, uqdirish, maslahat, qistash kabi semantik munosabatlarni bildiradi. Bu yuklama so'roq mazmunini bildirganda ba'zan -ya yuklamasi bilan ma'nodosh bo'la oladi. Masalan: -ya bilan: *Latofatxonning hovlisini topib, eshigini taqillatayotganida ko'nglidan bir gap o'tdi: bordi-yu, Latofatxon degani suvi qochib, shoxida mayiz bo'lgan kampirsimon bir xotin bo'lsa-chi?* (A.Qahhor). Qiyoslang: *...bordi-yu,*

Latofatxon degani suvi qochib, shoxida mayiz bo'lgan kampirsimon bir xotin bo'lsa-ya? kabi.

-chi yuklamasi *-mi* bilan ta'kidni bildirganda ma'nodosh bo'ladi. Masalan: *Ammam juda chiroyli, yuzida xoli bor, qosh-ko'zi chaqmoqdek xotin. Ammo juda shaddod. Har gapini xuddi mix qoqqandek tarsillatib gapiradi. Oyim undan qo'rqadi. Kelganda hurmatini joyiga qo'ymasin-chi, o'zini qaerda ko'rarkan.* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *kelganda hurmatini joyiga qo'ymasami, o'zini qaerda ko'rarkan.*

-chi - a yuklamasi bilan ham so'roq ma'nosida emas, balki ta'kid ma'nosida sinonim bo'ladi. Masalan: *Xafa bo'lmay, mudom o'ynab-kulgin-chi, / Qaddingdan, buvishim, berman kelgin-chi, / Shukrilillo, yaxshi tushni ko'ribsan, / Bu tushingga, oyim, bergin suyunchi.* («Alpomish» dostonidan). Qiyoslang: *Xafa bo'lmay, mudom o'ynab-kulgin-a, / Qaddingdan, buvishim, berman kelgin-a.*

-chi yuklamasi ham tilimizda faol qo'llanilib, ko'plab uslubiy ma'nolarni ifodalaydi.

-A. So'roq va taajjub ma'nolarini ifodalashga ixtisoslashgan bu yuklama matn bilan bog'liq turli ma'nolarda *-mi*, *-ya* kabi yuklamalar bilan o'zaro ma'nodosh bo'ladi. Masalan: 1) **-mi** bilan: - *Yo'q-da, firqa bova. Yo'q-da. Xonumonimiz kuydi! Biz kuyib-kuyib... kul bo'ldik!* - *Mirzaxo'jaboyni go'dagi uchun-a?* - *Kunjara bersam, emasa nima qilayin? Zog'ora non otliqqa yo'q bo'lsa, nima qilayin?* (T.Murod). Qiyoslang: - *Mirzaxo'jaboyni go'dagi uchunmi?* - *Ketdingiz-a, laylakjonlar, tashlab ona Buxoroni.* (A.Suyun). Qiyoslang: *Ketdingizmi, laylakjonlar, tashlab ona Buxoroni.* bu vositalarning matndagi o'ziga xos uslubiy xoslanishi muayyan farqlanishlarni yuzaga keltiradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, *-a* da tasdiq, ifodalanayotgan mazmundan xabardorlik ma'nolari sezilsa, *-mi* faqat so'roq ma'nosini anglatadi. Demak, *-a* yuklamasining bu jihatiga ko'ra mazmunan *-midan* boyroqligi ma'lum bo'ladi. 2) **-ya** bilan: - *O'zi, shu to'dalarga nima yetmayapti-a?* (T.Murod). Qiyoslang: - *O'zi, shu to'dalarga nima yetmayapti-ya?* - *Shundaqa gaplarni ochiq gapirishadimi-a?* (A.Qahhor). Qiyoslang: - *Shundaqa gaplarni ochiq gapirishadimi-ya?;*

Sulaymonov bedananing suvxo'rligiday kichkina xurmachani oldiga tortdi va bo'lak gap topolmay, qaymoqning ta'rifini qildi: – Bir shaharning qaymog'i boshqa shaharning qaymog'idan farq qiladi-a? (A.Qahhor). Qiyoslang: – Bir shaharning qaymog'i boshqa shaharning qaymog'idan farq qiladi-ya? kabilar. Ammo –a yuklamasida so'roq ottenkasi kuchli bo'lsa, -ya yuklamasida nisbatan taajjub ma'nosi ustivor. 3) -da bilan: Gulistonjon, seni yana Ko'rmoq bo'larmi nasib? Oh, onamga o'xshaysan-a, Jonim, ko'zim qorasi...» (A.Suyun). Qiyoslang: Oh, onamga o'xshaysan-da, Jonim, ko'zim qorasi... Ko'ryapmizki, bu vositalar ko'proq ta'kid mazmuniga ko'ra sinonim bo'la oladi.

Matnda *a* yordamchisi bog'lovchi bo'lib kelganda zidlash munosabatini anglatishiga ko'ra zidlovchi bog'lovchilar bilan ma'nodosh bo'ladi. O'TILda *a* yuklama sifatida ko'rsatilgan (turli darajadagi talaffuz bilan) Taajjubli, e'tirozli va shu kabi mazmundagi so'roqni bildiradi: *Nima? Nima deding? Nima dedingiz? O'n to'rt so'm berasiz? – A., o'n to'rt so'm? Oybek, Tanlangan asarlar.*¹⁷ Ammo bu vosita «O'zbek tili grammatikasi»ida bog'lovchi sifatida izohlangan: «O'zbek adabiy tili uchun norma darajasiga ko'tarilmagan bo'lishiga qaramay, *a* bog'lovchisi og'zaki nutq va badiiy adabiyotda uchramoqda. Bu bog'lovchi sodda yoki qo'shma gaplarni bog'lab, ular orasidagi qiyos, zid munosabatlarni ifodalaydi. Masalan: *-O'ktamjon, mening o'rtog'im juda epchil ayol... kotletni u pishirsinda, a o'zimizning taomlarni – kabob va palovdan tortib, to halimgacha do'ndirib yuboradi* (Oybek. Oldin vodiyan shabadalar); *- Qovun tanlashda didim yo'q. A siz-chi?* (Oybek. Oldin vodiyan shabadalar) kabilar». ¹⁸ Qiyoslang: *-O'ktamjon, mening o'rtog'im juda epchil ayol... kotletni u pishirsinda, ammo o'zimizning taomlarni – kabob va palovdan tortib, to halimgacha do'ndirib yuboradi.*

Bu vositani rus tilidan o'zlashgani xususidagi qarashlarda chalkashlik mavjud. Ya'ni *a* yordamchisi bizga rus tilidan o'zlashmagan, u avvaldan ham mavjud bo'lgan. Faqat qiyos, zid munosabatlarini ifodalovchi bog'lovchilik xususiyati rus tili grammatikasi asosida shakllangan, desak xato bo'lmas. Chunki

¹⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I жилд, -Б.25-б.

¹⁸ Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. –Б.71.

tilimizda *a* yuklamasining qo'llanilishi qadimiydir. Masalan, «Devonu lug'otit turk»da Mahmud Koshg'ariy *a* so'ziga shunday ta'rif beradi: *a*: - hayronlik va taajjubni bildiruvchi so'z. *Ol meni a: qildi – u meni hayron qildi, taajjubda goldirdi.*¹⁹ Demak, *a* - taajjub yuklamasidir. So'zlashuv nutqida *a* yordamchisini yigirmadan ortiq xilda talaffuz etib, shuncha xildagi pragmatik mazmun ifodalash mumkin. Shu sababli bu so'z bugungi kunda ham yuklama sifatida qo'llaniladi.

Demak, *-a* yordamchisi ham turli tuman uslubiy-pragmatik ma'nolarni voqelantirishda faol ishtirok etadi.

-YA. bu yordamchi ham nutqiy muloqot jarayoniga o'ziga xos pragmatik mazmunlarni yuzaga chiqarishda keng qo'llaniladi. Vash u ma'nolar atorfidan ba'zi yordamchilar bilan sionimlikni yuzaga keltiradi. Masalan: 1) **-a** bilan: - *Shungayam, kim qancha vaqt bo'ldi-ya?* - *O'ttiz to'qqizinchi yilda edi.* (T.Murod). Qiyoslang: - *shungayam, kim qancha vaqt bo'ldi-a?*; «*Padarla'nat, bunday telefonni! – dedi. Ovozi qayta quruvchi demokratlarni ovozigacha o'xshaydi-ya?*» (T.Murod). Qiyoslang: *Ovozi qayta quruvchi demokratlarni ovozigacha o'xshaydi-a?* kabilar. Aslida *-ya* yuklamasini eng yaqin ma'nodoshi *-a* yordamchisidir. Ammo taajjubni *-ya* kuchliroq ifodalasa, so'roq ma'nosi *-a* da yuqoriroq bo'ladi. 2) **-ku** bilan: *Nahotki o'q otdim o'z o'g'lim taraf - / Debon qalbingizni o'rtadi-ya oh!* (U.Azim). Qiyoslang: *Debon qalbingizni o'rtadi-ku oh; Yo'q, uxlagani yo'q edi, shekilli. Aniq ko'rди-ya! Devor orasidan sirg'alib chiqsa bo'ladimi? Validol qayoqda edi. Uf-f-f...* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Yo'q, uxlagani yo'q edi, shekilli. Aniq ko'rди-ku!* kabi. Bu yuklamalar ta'kid ma'nosini ifodalashga ko'ra ma'nodosh bo'ladi. Ammo *-ku* yuklamasida ta'kid ottenkasi *-ya* ga nisbatan ancha kuchli. 3) **-chi** bilan: *Devona. Meni ham eb qo'yishsa-ya?* (Zulfiya). Qiyoslang: *Meni ham eb qo'yishsa-chi?; Aravada o'ltirgan ayol paranjidan kichik qo'lchasini chiqarib oldingi zihini mahkam ushlaydi. Ot sirg'anib munkib ketsa-ya?* (Zulfiya). Qiyoslang: *Ot sirg'anib munkib ketsa-chi?* Ko'rinib turibdiki, bu yuklamalar so'roq ma'nosini ifodalashga ko'ra bir-biriga yaqinlashadi. 4) **-da** bilan: - *Qo'ling xuddi yigitning qo'liga o'xshaydi-ya, Maston, – dedi Turg'unoy ancha yurilgandan*

¹⁹ Кошғарий М. Девону луғотит турк. I китоб, -Б.75.

keyin,— biram qattiq... Erga tegsang shu qo'ling tufayli ko'p dashnom yeysan-da. (A.Qahhor). Qiyoslang: — Qo'ling xuddi yigitning qo'liga o'xshaydi-da, Maston,— dedi Turg'unoy ancha yurilgandan keyin kabi.

-ya ham matnda boshqa yuklamalar bilan pleonastik qo'llaniladi. Masalan: - Xotin ishlasa-ku, satta ilikka palov qilar edikku-ya, lekin xotinimni asti ishlatgim yo'q. (A.Qahhor). Uning bitta-ikkita qora tuk chap berib qolgan oppoq cho'qqi soqoli... YOpirimay, soqol ham odamga shuncha yarashadimi-ya!.. (A.Qahhor).

Umuman, so'roq va taajjub yuklamalari matnda faol o'rin almashib, o'zaro ma'nodoshlikni yuzaga keltiradi va turli xil uslubiy buyoqdorliklarni ifodalaydi.

-KU. Bu yuklama matnda ta'kid va kuchaytirish ma'nosini beradi. Masalan: e-ha! To'lagan-ku bu! Uni Qonqusga cho'ktirib yubormoqchi bo'lgan og'aynisi.(O'.Hoshimov) matnida —ku Aynan To'lagan ekanligini ta'kidlash orqali uni boshqa birov emasligiga ishora qilmoqda.

Ta'kid ma'nosini ifodalash jarayonida *axir* yuklamasi bilan sinonimlikni yuzaga keltiradi. Masalan: O'zi nima bo'ldi! Xor-zor bo'lib o'ldi-ku! (O'.Hoshimov). Qiyoslang: O'zi nima bo'ldi! Axir xor-zor bo'lib o'ldi! Ammo ko'rinib turibdiki, -ku yuklamasidagi ta'kid, axir ifodalagan ma'nodan kuchli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Gapdagi ta'kidni kuchaytirish uchun ikki yuklama ham qo'llanilishi mumkin. Masalan: Axir bu... o'zimizning anhor-ku! Ana o'sha xarrak, o'zimizning na'matak! (O'.Hoshimov). Tanidim! Axir bu — o'zimizning "vojak"—ku! (O'.Hoshimov).

-ku yuklamasi —da bilan ham o'zaro sinonim bo'ladi. Masalan: - Yig'lama, - dedi rahmi kelib. - Ataylab qilmadim-ku, jinni! Oting nima? (O'.Hoshimov). Qiyoslang: - Ataylab qilmadim-da, jinni! aytish mumkinki, -ku yuklamasi kuchli darajadagi ta'kidlash ma'nosini ifodalamoqda. Ammo —dadagi ta'kid —kunikiga nisbatan ancha passiv.

-ku yuklamasida ham ta'kidlash, ham kuchaytirish ma'nolari mujassamlashgan. —yu yuklamasi —ku bilan ma'nodosh bo'ladi. Masalan: Aytsang, shunday qildim, deb jar solib aytsang ham hech kim ishonmaydi-ku! (E.A'zam).

Qiyoslang: *Aytsang, shunday qildim, deb jar solib aytsang ham hech kim ishonmaydi-yu!* kabi.

-u ham shu ma'noda *-ku* bilan ma'nodosh bo'ladi. Masalan: *-Qayoqdan bilay? - dedi Qurbonoy xola beparvolik bilan. - Anavi yoqdan kelganlardan bittasidir-da. Bilasiz-ku, qish kelsa qalang'i-qasang'ilar ko'payadi. Kecha bayram qilib bo'kib ichgan bo'lsa...* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Bilasiz-u, qish kelsa qalang'i-qasang'ilar ko'payadi.* kabi.

-mi yuklamasi ta'kidni ifodalaganda *-ku* bilan ma'nodosh bo'ladi. Masalan: *Oyim donolar-da! Shuncha kundan beri "Dadang to'yingni kurolmadi", deb ma'yus tortib yurgan odam shunaqayam ochilib ketdilar, shunaqayam o'ynadilarki! Balo ekanlar-ku!* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Balo ekanlarmi!* Bu ma'nodoshlikda ham *-ku* yuklamasi o'zining kuchli ta'kid bildirish ma'nosini saqlab qoladi.

Ba'zan bog'lovchilashganda zidlov bog'lovchiga ko'chgan *-u*, *-yu* yuklamalari bilan ham ma'nodosh bo'ladi. Masalan: 1) *-u* bilan: *"Rustamjon! O'g'lim! - debdi dadam. - Sog'-salomatmisan? Nega mendan havotir olasan, bolam! Xudoga ming qatla shukr, men yaxshiman. Bilasan-ku, ish ko'p. Godovoy atchut payti...* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Bilasan-u, ish ko'p;* 2) *-yu* bilan: *Shahnoza qilt etmay o'tirar, o'zi yonimda-ku, xayollari uzoq-uzoqlarda kezayotganini his etib turardim.* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Shahnoza qilt etmay o'tirar, o'zi yonimda-yu, xayollari uzoq-uzoqlarda kezayotganini his etib turardim; ...Xayriddinning o'rniga boshqa o'qlovchi yuborishdi: latish bola ekan. Qiziq... Yaxshi yigit edi-ku, negadir hammamiz begonasirab turardik.* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Yaxshi yigit edi-yu, negadir hammamiz begonasirab turardik.* Bu o'rinlarda ham *-ku* bog'laganda kuchli ta'kid ottenkasi sezilmoqda.

Umuman, *-ku* yuklamasi matndagi ta'kidlash-kuchaytirish ma'nosini ifodalashda asosiy vazifani bajaruvchi yordamchi so'z hisoblanadi.

-U. Matndan anglashilayotgan ma'noni biroz ta'kidlash, kuchaytirish uchun qo'llanilayotgan bu yuklama ba'zan shu mazmundagi vositalar bilan turli ma'nodoshliklarni yuzaga chiqaradi. Masalan: *-ku* bilan: *"Rahmat, rahmat.*

Kechirasiz-u, akaxon, pulingiz ko'p bo'lsa, menimcha, o'zingiz kino olganingiz ma'qul. Ana o'shanda bosh rolda u kishini o'ynatasizmi yo o'zingiz chiqib o'ynaysizmi – ixtiyoringiz. (E.A'zam). Qiyoslang: *Kechirasiz-ku, akaxon, pulingiz ko'p bo'lsa, menimcha, o'zingiz kino olganingiz ma'qul.* Ammo bu o'rinda *-ku* yuklamasi ifodalayotgan ta'kid ma'nosi kuchli.

Aslida ta'kid ifodalashda *-u* yuklamasining eng yaqin ma'nodoshi *-yu* yuklamasidir. Chunki *-u* undosh bilan tugagan so'zlarda qo'shilsa, *-yu* unli bilan tugagan so'zlarga qo'shilib keladi. *-u* yuklamasi bog'lovchiga ko'chganda, zidlov va teng bog'lovchi vazifasini bajarib, shu bog'lovchilar bilan sinonimlikni yuzaga keltiradi. Masalan: 1) **ammo** bilan: *Bir o'tirishda Bo'taboy: «Nima uchun biz bir gunohni xotin kishi qilsa boshqa nom bilan aytamiz-u, erkak kishi qilsa boshqa nom bilan aytamiz, nima uchun aynan bir gunoh xotin kishini erga, erkak kishini ko'kka ko'tarishi kerak?» degan edi.* (A.Qahhor) Qiyoslang: *Nima uchun biz bir gunohni xotin kishi qilsa boshqa nom bilan aytamiz, ammo erkak kishi qilsa boshqa nom bilan aytamiz;* 2) **lekin** bilan: *Dotsent ro'paramga o'tirdi. - Avval ham gapirmoqchi bo'lgandim-u, tilim bormagan-di...* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Avval ham gapirmoqchi bo'lgandim, lekin tilim bormagan-di;* 3) **biroq** bilan: *Qurbonoy o'rnidan turib dadasining bag'riga otilmoqchi bularmish-u, qaddini rostlay desa, oyoq-qo'li qimirlamasmish.* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Qurbonoy o'rnidan turib dadasining bag'riga otilmoqchi bularmish, biroq qaddini rostlay desa, oyoq-qo'li qimirlamasmish.* Ko'rinib turibdiki, *-u* yuklamasining zidlov bog'lovchilik xususiyati o'ta faol. Bu o'rinda ushbu vositaning ikkilamchi funksiyasi birlamchi funksiyasidan ancha ilgarilab ketgan. Bu vositaning zidlov bog'lovchilardan ustun tomoni shundaki, uyushiq bo'laklarni yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning juda qisqa, ixcham bog'lanishini ta'minlaydi.

Bu yuklama va teng bog'lovchisi bilan ham ma'nodoshlikni yuzaga keltiradi. Masalan: *Badiiy kengashda har qanday ssenariyning muhokamasini boshlashdan oldin, asli kinochiroqchidan chiqqan o'lgudek qo'rqog'u ehtiyotkor rais so'raydi: "Ustozning nazarlaridan o'tganmi bu?" Mabodo o'tmagan bo'lsa,*

boshingizni ming toshga uring – befoyda. (E.A'zam). Qiyoslang: o'lgudek qo'rqog'u ehtiyotkor - o'lgudek qo'rqoq va ehtiyotkor kabi.

-u yuklamasi zidlov bog'lovchilar bilan pleonastik qo'llanadi. Bunda jumladagi bog'lanishni zidlov bog'lovchisi amalga oshirib, -u ta'kid ma'nosini kuchaytiradi. Masalan: *yeydigan ovqat esa yo'q, aniqrog'i – bor, hatto mo'l-ko'l-u, lekin men emas...* (E.A'zam); *Oyim opamning hovlisidagi tutdan boshqa qaysi bog'ni, eski sholchadan boshqa qaysi gilamni, moshkichiridan boshqa qaysi palovni aytayotganini bilmasdim-u, lekin hamma gapiga ishongim kelardi* (O'.Hoshimov) kabilar.

Umuman, -u yordamchisi yuklama sifatida ham, bog'lovchi sifatida ham nutqimizda faol qo'llanilib, turli pragmatik-stilistik xususiyatlarini namoyon qiladi.

-YU. Bu yuklama ham matndagi ta'kidlash ma'nosini kuchaytirishiga ko'ra ayrim vositalar bilan ma'nodoshlikni yuzaga keltiradi. Masalan: 1) **-ku** bilan: *Qog'ozga qaramasdan gapirsa, otini aytolmaydi-yu, tag'in bu kishi marshal emish!* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Qog'ozga qaramasdan gapirsa, otini aytolmaydi-ku, tag'in bu kishi marshal emish!* 2) **-da** bilan: *Qurbonoy qarasa, otabola yoqalashib ketadigan. Qizchasini ko'tardi-yu, chiqdi-ketdi.* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Qizchasini ko'tardi-da, chiqdi-ketdi. Hozir... Kapalak qanotidek bir-ikki silkinadi-yu... aynan yurakning o'zini so'rab turgan ko'zlardan yosh oqadi...* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Kapalak qanotidek bir-ikki silkinadi-da... aynan yurakning o'zini so'rab turgan ko'zlardan yosh oqadi...* 3) **-mi** bilan: *- Shuyam kasal bo'pti-yu! Men kecha jinnixonadan qochib chiqdim. Sleduyuyiy!* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *SHuyam kasal bo'ptimi! Men kecha jinnixonadan qochib chiqdim* kabilar.

-yu yuklamasi bog'lovchiga ko'chganda xuddi -u singari teng va zidlov bog'lovchilar bilan ma'nodosh bo'ladi. Masalan: 1) **ammo** bilan: *Oyim bir akamga, bir menga qarab kulimsirab qo'ydi-yu, indamadi.* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Oyim bir akamga, bir menga qarab kulimsirab qo'ydi, ammo indamadi;* 2) **lekin** bilan: *Tuman tarqamadi-yu, kun bir qadar yorishgandek bo'ldi.* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Tuman tarqamadi, lekin kun bir qadar yorishgandek*

bo‘ldi; 3) **biroq** bilan: *To‘rttasi gaplashib turgan bo‘lsa, Soat yaqin borishi bilan kelishib olgandek jimib qoladi. Yo‘q, gaplashishadi u bilan. Gaplashadi-yu, begonaligi sezilib turadi.* (O‘.Hoshimov). Qiyoslang: *Gaplashadi, biroq begonaligi sezilib turadi.* Zidlov munosabatli gaplarni bog‘lashda –*yu* yuklamasi ham –*u* kabi zich va ixcham bog‘lanishni amalga oshiradi. U ana shu xususiyatiga ko‘ra zidlov bog‘lovchilaridan farqlanadi va qulay hisoblanadi. Nutq jarayonida ko‘p qo‘llanilishi ham shu xususiyati bilan belgilanadi.

–*yu* yuklamasi **va** bilan ma‘nodosh bo‘ladi. Masalan: *Uning o‘zi jigarrang yog‘och to‘siq ortidagi bahaybat stolida Farhodning pasportiyu yo‘llanmasini sinchiklay-sinchiklay ko‘zdan kechirib, oldidagi kattakon daftariga qayd etayotir. Yoshgina, sho‘xgina juvon.* (E.A‘zam). Qiyoslang: *pasportiyu yo‘llanmasini – pasporti va yo‘llanmasini* kabilar.

Teng munosabatli bog‘langan qo‘shma gap qismlarini ham bog‘laganda va bilan ma‘nodoshlikni yuzaga keltiradi. Masalan: *...Sportchilarda “ikkinchi nafas” degan gap bor. Sillang qurib, tamom endi, yiqilib qolaman, deganingda, to‘satdan “ikkinchi nafas” ochiladi-yu, vujudingda yangi kuch, yangi g‘ayrat paydo bo‘ladi...* (O‘.Hoshimov). Qiyoslang: *to‘satdan “ikkinchi nafas” ochiladi va vujudingda yangi kuch, yangi g‘ayrat paydo bo‘ladi...*

–*da* bilan ham shu mazmunda sinonim bo‘ladi: *eshik oldida turgan melisaga Ruxsat qog‘ozini topshirib, tashqariga chiqdi-yu, bir lahza turib qoldi.* (O‘.Hoshimov). Qiyoslang: *Ruxsat qog‘ozini topshirib, tashqariga chiqdi-da, bir lahza turib qoldi. Uyoqlarda esa yoz bo‘yi yomg‘ir yog‘adi. Shovv etadi-yu, bir zumda olamni yashnatib yuboradi.* (O‘.Hoshimov). Qiyoslang: *Shovv etadi-da, bir zumda olamni yashnatib yuboradi.*

Demak, –*yu* yordamchisi yuklama sifatida ham, bog‘lovchi sifatida ham kommunikativ nutq jarayonida faol ishtirok etadi.

–**DA.** bu yuklama ham quyidagi vositalar bilan ma‘nodosh bo‘la oladi: 1) –**ku** bilan: *“Endi kechmi deyman-da, o‘rtoq, – dedi xiyla pishib qolgan Sur‘at ko‘zlari yoshlangandek bo‘lib.* (E.A‘zam). Qiyoslang: *endi kechmi deyman-ku, o‘rtoq* 2) **ham** bilan: *Farhod garchi Kamolovani unchalik yaqin olmasa-da, bu*

gapdan noqulay sezdi o'zini.(E.A'zam). Qiyoslang: *Farhod garchi Kamolovani unchalik yaqin olmasa ham, bu gapdan noqulay sezdi o'zini* 3) *–mi* bilan: *Bu yog'idan ko'ngli to'qligi uchundir, yigit o'zini har joy, har vaziyatda erkin tutar, yor-do'stlarining uncha-muncha amaldor ham xat yozib, qo'ng'iroq qilib eplayolmagan yumushlarini birpasda do'ndirib kelar edi. Shunisi bilan-da hammaga suyumli, hammaga darkor!* (E.A'zam). Qiyoslang: *shunisi bilanmi hammaga suyumli, hammaga darkor* kabilar.

-da yuklamasi bog'lovchi vazifasida ham juda ko'p ishlatiladi, ya'ni bog'lovchi turkumiga ko'chadi. U bog'lovchi vazifasida kelganda *va* teng bog'lovchisi hamda teng bog'lovchi vazifasidagi *–u*, *–yu* yuklamalari bilan sinonimlikni yuzaga keltiradi. Masalan: 1) *va* bilan: *Lagutinaning javrashiga qaramay, biqindagi do'kondan u bir shisha konyak bilan kolbasa-pishloq oldi-da, birga-birga bu yoqqa – Medvedkovoga qarab jo'nashdi.* (E.A'zam). Qiyoslang: *biqindagi do'kondan u bir shisha konyak bilan kolbasa-pishloq oldi va birga-birga bu yoqqa – Medvedkovoga qarab jo'nashdi;* 2) *–yu* bilan: *Xona o'rtasida bir zum sargarang, qashinib turdi-da, so'ng eshikni ham ochiq tashlab navbatchining oldiga yugurdi.* (E.A'zam). Qiyoslang: *Xona o'rtasida bir zum sargarang, qashinib turdi-yu so'ng eshikni ham ochiq tashlab navbatchining oldiga yugurdi.* 3) *–u* bilan: *-Endi bir durbin toping, bo'yinga osasiz-da, o'tgan-ketgan qiz-juvonni tomosha qilib yurasiz.* (E.A'zam). Qiyoslang: *bo'yinga osasiz-u, o'tgan-ketgan qiz-juvonni tomosha qilib yurasiz* kabilar.

O'tgan asrning 50-60 yillariga oid ayrim ilmiy manbalarda *–da* yuklamasi bilan *–da* bog'lovchisini farqlashga urinishlar kuzatilgan bo'lsa-da (ular shakl jihatidan o'xshash, aslida boshqa-boshqa narsa qabilidagi yoki bog'lovchi vazifasida kelganda so'zga qo'shib yozish, yuklama bo'lib kelganda chiziqcha bilan yozish borasidagi takliflar ham shular jumlasida edi). Biroq *–da* yuklamasi bog'lovchiga ko'chganda ham baribir chiziqcha bilan yozilishi me'yor hisoblanadi. Umuman, bu yordamchi ham nutq jarayonida faol qo'llanilib, turli mazmundagi ta'kid ma'nosini ifodalab keladi.

-GINA. (-kina, -qina). Bu yuklama ajratish, chegaralash ma'nolarini ifodalab, *faqat, yolg'iz, xolos, yakka, yagona, tanho, bir* so'zlari bilan ma'nodosh bo'la olishi aytilgan²⁰. Bu xususida T.Qurbonov ham o'z mulohazasini bildirgandi: «-gina elementi *faqat, yakka, yagona* kabi so'zlar anglatgan ma'nolarni bildirishi mumkin, ya'ni sinonimik xususiyatga ega. Lekin bu holat – sinonimik xususiyat hamma vaqt ham bo'lavermaydi. Uning *faqat, yakka, yagona, tanho* so'zlariga sinonimik ma'noda kelishi va ular anglatgan ma'noni bildirishi faqatgina kontekstda o'zi bilan birga kelgan so'zlar qurshovida ma'lum bo'ladi: *Men dunyoga kelgan kundanoq /Natanim deb seni uyg'ondim./ Odam baxti birgina senda / Bo'luriga mukammal qondim.* (H.Olimjon, I tom, 244-bet). Yuqorida keltirilgan misolimizdagi «birgina» so'zi o'rnida «*faqat*» so'zini ishlatdik, ma'no o'zgarmaydi, ya'ni «*Odam baxti birgina senda*» o'rnida «*Odam baxti faqat (gina) senda*» ham deyish mumkin.»²¹ Bu yuklama so'zlovchi yoki yozuvchining muayyan pragmatik niyatini ro'yobga chiqarish uchun matnda keng ishlatiladi.

Bu yuklama otning *-gina* (-kina, -qina) kichraytirish-erkalash sub'ektiv baho qo'shimchasi bilan omonimlik ko'rinishiga ega. Bu vositaning yuklama yoki sub'ektiv baho formasiligini bilish uchun matn va so'zlar qurshovi lozim bo'ladi. Ya'ni matndagi ishtirokini tahlili qilish orqali qanday vazifaga xoslanganini bilishimiz mumkin. Ayrim tilshunoslar bu birliklarni urg'u orqali farqlashgan. Ya'ni *-gina* urg'u olsa erkalash ottenkasini, urg'u olmasa ayirish ma'nosini ifodalashi aytilgan.²²

Umuman, *-gina* yuklamasi ayiruv va chegaralov ma'nosi bilan bog'liq semantik-stilistik xususiyatlarini ham namoyon qiladi.

-DIR. Gumon yuklamasi sifatida ushbu grammatik vosita ko'plab so'zlar bilan uslubiy ma'nodoshlik hosil qiladi. Darhaqiqat, *-dir* yuklamasi turli so'zlarga qo'shib gumon ma'nosini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Masalan: 1) So'roq olmoshlariga qo'shib kelganda: *kim* bilan: - *Shunaqa bo'lishini bilardim, - dedi*

²⁰ Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик тахлили (монография). – Тошкент: Фан, 2013. – Б.226.

²¹ Қурбонов Т. Айирув маъносини ифодаловчи воситаларнинг айрим семантик ва стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1978. –Б.68-б.

²² А.Ғуломов ва бошқалар. Ўзбек тили морфем луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1977. –Б.408.

kimdir bepisand ohangda. (O'.Hoshimov); **nima** bilan: - *Sen ham odam bo'lding-u!* - dedi onasi alam bilan. Yana *nimadir* demoqchi bo'ldi-yu, shashtidan qaytdi... (O'.Hoshimov); **qaysi** bilan: *Bultur qaysidir* sovxozda talabalardan biri *sirg'anib, quduqqa tushib ketibdi. O'rtoqlari tortib olguncha tamom bo'пти...* (O'.Hoshimov); **qanday** bilan: ... *Qor yog'di. Shahnoza birinchi qorning shu qadar shiddat bilan yog'ishini endi ko'rishi edi. Qandaydir* biron soat ichida barak tomini bir qarich qor bosdi. *Hamma mung'ayib qoldi.* (O'.Hoshimov); **qachon** bilan: *Kecha pastga, suv bo'yiga tushdim. Katta yo'l chetida qachondir* uzilib ketgan tank zanjiri zanglab yotibdi. (O'.Hoshimov); **nega** bilan: *Negadir* qo'rqibroq yaqin bordim. (O'.Hoshimov); **qayer** bilan: *Saidiy xatni yana o'qidi. Ikkinchi, o'qishda xatning qayeridir* unga yoqmadi. (A.Qahhor); **qayoqqa** bilan: *Hatto nafis darpardalar ham qayoqqadir* gumdon bo'lgan. (O'.Hoshimov).

2) **bilan** ko'makchili bo'lakka qo'shilib kelganda: *U yerda kim bilandir* o'ynashib, silliqatib qo'ygan ekan, *Toshkentga qaytganidan keyin qo'lma-qo'l hashar bo'pketdi.* (E.A'zam); *Churillagan hushtak tovushi havoni titratdi. Qomati nimasi bilandir* tarvuzga o'xshab ketadigan militsioner paydo bo'ldi. (O'.Hoshimov).

3) **uchun** ko'makchili bo'lakka qo'shilib kelganda: *Farhod unga ertalabki nonushtadan so'ng, nima uchundir* Akobirovning nazarini chetlab qo'ng'iroq qilgan edi. (E.A'zam)

4) **-gan** sifatdash qo'shimchasi bilan shakllangan bo'lakka qo'shilib kelganda: *Mavlono Fuzuliyning ashaddiy muxlisi Tamara – Tarona Samed qizi Qurbonova yodiga tushdi. E, u qarib ketgandir* – o'shandayoq sendan to'rt-besh yosh katta edi. (E.A'zam).

-dir yuklamasi gumon ma'nosini ifodalashda boshqa vositalar qatori nutqiy faoliyatimizda keng qo'llaniladi va bu bilan bog'liq turli pragmatik-stilistik xususiyatlarini namoyon etadi.

So'z ko'rinishidagi yuklamalarning stilistik xususiyatlari. O'zbek tilida so'z shaklidagi yuklamalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: *faqat, yolg'iz, axir, hatto, hattoki, nahot, nahotki, xuddi, naq, na... na* va b. Quyida ana

shu soʻz koʻrinishidagi yuklamalarning boshqa grammatik vositalar bilan sinonimik xususiyatlarini tahlil qilamiz.

FAQAT. matndagi soʻzlarni chegaralash, ajratish uchun ishlatiladi. –*gina*, *yolgʻiz*, *xolos* yordamchilari bilan sinonimlikni xosil qiladi. Masalan: 1) **yolgʻiz** bilan: *Toʻlagan ham miq etmay bezrayib turar, faqat qizaloq qoʻrquvdan dagʻ-dagʻ titrab, yigʻlar edi.* (Oʻ.Hoshimov). Qiyoslang: *Toʻlagan ham miq etmay bezrayib turar, yolgʻiz qizaloq qoʻrquvdan dagʻ-dagʻ titrab, yigʻlar edi;* 2) –**gina** bilan: *ekipajimiz deyarli oʻzgarmadi. Xayriddin - oʻqlovchi, Sasha - otuvchi... faqat Temur aka rezvedkachilar bataloniga tushib qoldi.* (Oʻ.Hoshimov). Qiyoslang: *Temur akagina rezvedkachilar bataloniga tushib qoldi;* 3) **xolos** bilan: *Qiziq,, Qurbonoy hech nimani oʻylagisi kelmasdi. Endi oyoqlaridan muz oʻtmas, sovuqdan yelkalari titramas, faqat uyqusi kelardi.* (Oʻ.Hoshimov). Qiyoslang: *endi oyoqlaridan muz oʻtmas, sovuqdan yelkalari titramas, uyqusi kelardi, xolos;* 4) **bir** bilan: *Men bir sizni oʻyladim.* (soʻzlashuvdan). Qiyoslang: *Men faqat sizni oʻyladim;* 5) **bor-yoʻgʻi** soʻzi bilan: *Bola onasi boshini opichlab bordi. Ovoz berib, yigʻlay, dedi. Onasidan qoʻrqdi. Onasi oyoqlarini chimchilab olishidan qoʻrqdi. Bola bor-yoʻgʻi ing-ing etib bordi.* (T.Murod). Qiyoslang: *Bola faqat ing-ing etib bordi.* 6) **atigi** bilan: – *Xudoyim taolo quyoshni ziyo, oyni nur qilib yaratgan, otaxon. Emishki; xudoyim taolo odamzotni zuvalasini loydan pishitib boʻlgach... odamzot ustidan atigi bir kun... bir kungina quvonch yomgʻirini yogʻdiribdi!* (T.Murod). Qiyoslang: *odamzot ustidan faqat bir kun... bir kungina quvonch yomgʻirini yogʻdiribdi* kabilar. Ammo ushbu birliklar bir-biridan nafaqat jumladagi qoʻllanish oʻrniga koʻra, balki ayirish, chegaralash maʼnosini ifodalashiga koʻra ham farqlanadi. Albatta, bu vositalar maʼno nozikligiga koʻra biri ikkinchisidan farqlanadi.

YOLGʻIZ. Ravish turkumiga xos boʻlgan bu soʻz yuklama vazifasini bajaruvchi mustaqil soʻz hisoblanadi. Masalan: *Jahonda eng donishmand xalq bilasizmi, kim? Avstraliya aborigenlari! Ogʻir jinoyat qilganni qamamaydi. Otmaydi. Osmaydi. YOl gʻiz qoldiradi. Bitta oʻzini!* (Oʻ.Hoshimov).

Bu soʻz yuklama sifatida *yakka, yagona, tanho, bir* soʻzlari bilan maʼnodosh boʻladi. Ammo *yolgʻiz* soʻzining bu boradagi faolligi uni koʻp oʻrinlarda yuklamalar sirasiga qarashni odat tusiga kiritgan.

Umuman, *faqat, yolgʻiz, yakka, yagona, tanho, bir, faqatgina, yolizgina, birgina* kabi yuklamalari va funksional yuklamalari oʻzaro maʼnodoshlik munosabatda boʻlsa-da, yaʼni matnda biri ikkinchisi oʻrnida bemalol qoʻllanib kela olsa-da, biroq ular oʻzlarining xususiy farqlanishlariga ega. Ularning ushbu oʻziga xosliklari matndan anglashilib turadi. Shunga kura ular baʼzan bir-birlarining oʻrnilarida erkin almasha, baʼzan buning imkoni boʻlmaydi. Ularning matnda tanlab ishlatilishi uslubiy talab bilan amalga oshiriladi.

AXIR. Bu yuklama oʻzi bogʻlanib kelgan sintaktik qismga koʻproq taʼkid maʼnosini beradi. Bu yuklama soʻzlovchining voqelikka munosabatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yuklamaning jumladagi ahamiyatini bilish uchun u ishtirok etgan jumlaning qoʻllangan va qoʻllanmagan holda qiyoslab koʻrishning oʻzi kifoya. Bu yuklama oʻzi ishtirok etgan matndagi gumon maʼnosini taʼkidlaydi: - *Buy-bastini ilgʻagandirsiz, axir!* (Oʻ.Hoshimov).

Axir yuklamasi oʻzi qatnashgan jumladagi soʻroq mazmunini taʼkidlaydi: - *Qilgan ishingiz jinoyat ekanini bilasizmi? - Nega, jinoyat boʻlarkan? Rabochiy klass dam olishi kerakmi axir?* (Oʻ.Hoshimov); - *eshigingizni taqillatgan grajdanin SHomatovning boshiga araq shishasi bilan urmoqchi boʻlgansizmi axir?* (Oʻ.Hoshimov) kabi.

Jumlada *-ku* bilan birgalikda qoʻllanilib, taʼkid maʼnosini kuchaytiradi: *Men necha yoshga chiqdim oʻzi? Yigirma ikkiga?! Yoʻgʻ-e, axir men etmish ikkidaman-ku!* (Oʻ.Hoshimov); *Keyin oʻylasam, kapitan toʻgʻri qilgan ekan. Ekipajimieda jang koʻrgan biron kishi boʻlishi kerak-ku, axir?* (Oʻ.Hoshimov) kabilar.

Axir yuklamasi **-ku endi** kabi ayrim vositalar bilan sinonimlikni hosil qiladi. Ammo shuni alohida eʼtirof etish zarurki, matndagi taʼkid maʼnosini ifodalashda *axir* yuklamasi oʻziga xos xususiyatini namoyon qiladi.

HATTO. Matndagi ta'kid va kuchaytiruv ma'nolarini o'ta kuchli ifodalashi bilan ajralib turuvchi bu yuklama shu xususiyatiga ko'ra boshqa vosiatlar bilan ma'nodosh bo'la olmaydi. Ya'ni bu yordamchi ifodalagan ma'noga teng ma'noni hech qaysi birlik yuzaga chiqara olmaydi. Faqat *hattoni* o'zining ekvivalenti *hattoki* bilan almashtirib qo'llash mumkin: *Atrofida to'rtta ko'rpacha. Burchakda bolaligimda dadam olib kelgan "Elektron" televizor. Bor jihoz — shu. Hatto nafis darpardalar ham qayoqqadir gumdon bo'lgan. Derazalarning yarmini to'sgan oddiy sarg'ish parda g'arib mo'ng'ayib turibdi.* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *Burchakda bolaligimda dadam olib kelgan "Elektron" televizor. Bor jihoz — shu. Hattoki nafis darpardalar ham qayoqqadir gumdon bo'lgan. Derazalarning yarmini to'sgan oddiy sarg'ish parda g'arib mo'ng'ayib turibdi.* Ammo *hattoki* yuklamasi *hattoga* nisbatan kuchliroq ta'kid ma'nosini ifodalaydi. Lekin bunday almashtirish hamisha ham to'g'ri bo'lavermaydi: *Kuyov uncha-muncha odam emas, polkovnik ekanini, NKVD bilan hazillashib bo'lmasligini tushuntirib qo'yishdi shekilli, chol shashtidan qaytdi. Esida, to'y nihoyatda xushchaqchaq o'tdi, hatto generalning o'zi ham keldi* (O'.Hoshimov). misolida *hattoni hattokiga* almashtirish g'alizlikni yuzaga keltiradi.

Ba'zan matnda bu yuklamalarni ayrim yordamchilar bilan almashtirish mumkinday tuyuladi. Ammo matndagi ta'kid ma'nosi yo'qolib, oddiy axborot yuzaga keladi. Masalan: *YAxshi! Hali kirib kelgan paytimdagi hayajon yo'qolib, ko'nnglimni allanechuk xotirjamlik, hatto o'zimning haqligimga ishonch hissi egalladi* (O'.Hoshimov) matnidagi *hattoni* va ga almashtirish mumkinday ko'rinsa-da (*hali kirib kelgan paytimdagi hayajon yo'qolib, ko'nnglimni allanechuk xotirjamlik va o'zimning haqligimga ishonch hissi egalladi*) *hatto* tomonidan ta'kidlangan ma'no yo'qoladi.

Bu yuklamaning matndagi ishtiroki ham hamisha bir xil bo'lmaydi. Ba'zan faqat jumladagi ta'kidni anglatrsa, ba'zan ta'kidlash bilan birga uyushiq bo'laklarni yoki qo'shma gap qismlarini mantiqan bog'laydi. Kuzatishlarimizga tayanib ayta olamizki, *hatto* yuklamasi nutqimizda faol qo'llanuvchi o'ziga xos yordamchilar sirasiga kiradi.

Xuddi shuningdek, *nahot*, *nahotki* yuklamalari ham jumladagi taajjub ma'nosiga yo'g'rilgan ta'kidni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: – *e-e, uka, – dedi Mirhomidxo'ja rangi o'chib, – men... men pora deb berganim yo'q, nahotki shundoq desangiz...*(A.Qahhor) matnida *nahotki* yuklamasi taajjubni ta'kidlamoqda. Ana shunday ma'no nozikligini o'zida mujassamlashtirgani uchun bu birliklar boshqa vositalar bilan ma'nodosh bo'la olmaydi. Bu yuklamalar faqat o'zaro o'rin almashinishi mumkin.

Aytish mumkinki, yuklamalar ichida eng sermahsullik bo'yicha ham, jumla mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatish bo'yicha ham bu yuklamalar faolliklari bilan ajralib turadi.

XUDDI. Bu yuklama o'zi mansub bo'lgan so'zning ma'nosini aniqlab ko'rsatishda baravar qo'llanilsa-da, *xuddi* yuklamasi *naq* yuklamasiga nisbatan semantik jihatdan ancha kengaygan. Ya'ni uning semantik maydonida aniqlab ko'rsatish, chog'ishtirish, qiyoslash hamda kuchaytirish-ta'kidlash ma'nolari mujassamlashgan. U shu xususiyatlariga ko'ra ko'plab vositalar bilan ma'nodoshlikni yuzaga keltira oladi. SHuningdek, bu so'zning *naq, aynan, go'yo, go'yoki, misoli, bamisoli, misli, bamisli, kabi, singari, yanglig'*, –*dek, -day, -dayin, -larcha, -omuz, -cha, singari, kabi, monand* vositalari bilan sinonimlik hosil qilishi misollar yordamida yoritilgan.²³

Xuddi yuklamasi jumla tarkibidan anglashilayotgan o'xshatish, qiyoslash ma'nosini ta'kidlab, bo'rttirib, kuchaytirib keladi. Masalan: *Qiz xayrlashib avtobusga chiqqanida xuddi bir zarur gapi bo'lib unutganday orqasiga – Saidiyga qaradi.* (A.Qahhor) kabilar.

NAQ. Bugungi kunda tilimizda *naq* yuklamasining ham *xuddi* singari semantik jihatdan faollashganini ko'ramiz. Bu yuklama kommunikativ nutq jarayonida hodisa yoki predmetni aniqlab ko'rsatishdan tashqari, chog'ishtirish, o'xshatish va kuchaytirish ma'nolarini ham ifodalamoqda. Ba'zan emotsional-ekspressivlikni ifodalashda *xuddi* yuklamasidan kuchliroq otenkani ifodalaydi.

²³ Пардаев А. Ко'rsatilgan asar, – В. 227.

Qiyoslash-o'xshatish ma'nolarini ifodalashiga ko'ra qo'yidagi vositalar bilan ma'nodoshlikni yuzaga keltiradi: 1) **go'yo** bilan: *Or qilmas do'st-dushmanidan, Unutganday zotini, Naq patak kovushimda, Bir so'z demas botinib...»* (A.Suyun). Qiyoslang: *Go'yo patak kovushimda.* 2) **go'yoki** bilan: *Naq ko'ksimni mo'ljallab bu dam / Quyosh olov nayzalar otar* (U.Azim). Qiyoslang: *Go'yoki ko'ksimni mo'ljallab bu dam;* 3) **misoli (bamisoli)** bilan: *elbrusning qush oppoq boshi / Naq «Qiz ko'ksi»—sofliq, saxovat.* (U.Azim). Qiyoslang: - *misoli «Qiz ko'ksi»—sofliq, saxovat. kabi.*

Umuman, aniqlov yuklamalari ham kommunikativ nutq jarayonida o'ziga xos semantik-stilistik xususiyatlarini namoyon qiladi va so'zlovchi yoki muallifning pragmatik maqsadini yuzaga chiqarishda muayyan vazifalarni amalga oshiradi.

AGAR. Hozirgi o'zbek tilida shu paytgacha shart bog'lovchilari deb sanab kelingan *agar, agarda, garchi, garchand, basharti, mabodo, bordi-yu* kabi yordamchilarning yuklamalar sirasiga ko'chganligi e'tirof etilgani sababli²⁴ bu birliklarni yuklama sifatida tahlil qilishga jazm etdik. Tarixan bog'lovchi bo'lgan bu birliklarning yuklamalik xususiyati ko'rsatilgan adabiyotlarda keng va atroflicha bayon etilgan.

Agar yordamchisi fe'lning *-sa* shart mayli qo'shimchasidan anglashilgan shart ma'nosini ta'kidlayotganligi uchun ta'kid yuklamasi hisoblanmoqda.

Agar yuklamasining kommunikativ nutq jarayonida o'ta faol qo'llanishi natijasida poetik vazn talablari bilan *gar, garchi, agarchi, garchand, magari* singari bir necha xil variantlari yuzaga kelgan.

Agar yuklamasi ayrim shartli evfemizmlarni shakllanishiga ham asos bo'ladi. Masalan: *Men mana shu Madielni she'rlarini o'qiganman. She'rlarida hayotdan nishona bo'lsa - o'lsin agar!* (T.Murod); *Kampir uning tovushini eshitmadi. U o'zicha gapirib borar edi: «Burungi zamon bo'lsa, mana shu maxluqqa tegmasdan ilojing yo'q edi, desam Adolat ishonmaydi, o'lay agar*

²⁴ Хожиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили боғловчилари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. -№2 -Б.55.; Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. -B.399. Пардаев А. Кўрсатилган асар. –Б.229.

ishonmaydi!» (A.Qahhor); *Gap tamom bo'lgandan keyin ikki oradagi munosabat «to'g'rilikcha» ekaniga Rahimjonni ishontirish uchun, Muhayyo «o'lay agar!» dedi.* (A.Qahhor) kabilar.

Mabodo yuklamasi shart tushunchasini ifodalagan paytda u shart ma'nosini ta'kidlovchi yuklamalar bilan emas, balki gumon-taxmin ma'nosini ifodalovchi modal so'zlar bilan ma'nodosh bo'ladi. Masalan: - *Bu yog'i sizning ishingiz emas, grajdanka Shomatova... Ayting-chi, mabodo eringiz keyingi kunlarda Vasilev bilan to'qnashmaganmide?* (O'.Hoshimov). Qiyoslang: *hoynahoy eringiz keyingi kunlarda Vasilev bilan to'qnashmaganmide? / chamasi, eringiz keyingi kunlarda Vasilev bilan to'qnashmaganmide? / ehtimol, eringiz keyingi kunlarda Vasilev bilan to'qnashmaganmide?* kabilar. Bu holat *mabodo* yuklamasining ushbu sinonimik qatordagi yuklamalardan farqli jihati mavjudligini va uni polisemantiklik xususiyatiga ega ekanligini anglatadi. Demak, biz bu yordamchini ikkiyoqlama: ham modal so'z sifatida, ham yuklama sifatida tavsiflashimiz mumkin. Ikki xolat ham xato hisoblanmaydi. Uning modal so'z yoki yuklama ekanligi matndagi ma'nosidan va so'zlar qurshovidan anglash mumkin bo'ladi.

Basharti, *bordi-yu* yordamchilari ham ushbu sinonimik qatorga xos bo'lib, ma'nodoshlikni hosil qiladi. *Basharti* yordamchisi asosan kitobiy uslubga xoslangan, shuning uchun uni boshqa uslublarda deyarli uchratmaymiz.

Bu yuklamalar kommunikativ nutq jarayonida faol qo'llaniladi va turli xil pragmatik-stilistik xususiyatlarini namoyon etadi.

Shuningdek, **go'yo**, **go'yoki** o'xshatish-chog'ishtirish bog'lovchilari ham yuklamalar sirasiga qarala boshlandi. Binobarin, matndagi o'xshatish ma'nosini - *dek/-day* vositalari bajara boshlagach *go'yo*, *go'yoki* yordamchilari ushbu birliklar ifodalayotgan ma'noni ta'kidlab, kuchaytirib kelmoqda. Bu birliklar polisemantik xususiyatga ega bo'lib, ham bog'lovchilik, ham yuklamalik xususiyatlarini namoyon etaverishlari mumkin. Aslida bu birliklarning grammatik tabiatida yuklamalik xususiyatini shakllangani ularning doimiy rivojlanishda, siljishda ekanligidan, semantik maydoni boyiyotganidan dalolat beradi. Bu yordamchilar

ham kommunikativ nutq jarayonida bog‘lovchi sifatida ham, yuklama sifatida ham o‘ziga xos pragmatik-stilistik vazifa bajaradi.

NA... NA. na... na yordamchisi inkor bog‘lovchisi sifatida ko‘rsatib kelindi. Keyingi yillarda bu yordamchi inkor yuklamasi deb baholandi. R.Rasulov bu yordamchining semantik-grammatik xususiyatlarini maxsus o‘rganib asosan ikki xil pozitsiyada kelishini aytadi: a) uyushgan gap bo‘laklaridan oldin, b) qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarda. *Na...na* ning uyushiq bo‘laklardan oldida kelishi, u uyushiq bo‘lakning gapda tutgan o‘rni, bajarayotgan vazifasiga qarab farqlash mumkin. U uyushgan ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi va hollarning oldida, asosan, takrorlangan holda kelib, gapning umumiy mazmuniga va ayrim gap bo‘laklariga ta’kid, kuchaytirish, inkor, noaniqlik kabi ma’nolarni berish uchun xizmat qiladi» deydi.²⁵ U bu yordamchini yuklama ekanligini asoslash jarayonida uning polisemantiklik xususiyati haqida ham ma’lumot beradi. Ya’ni, *na...na* yuklama sifatida ta’kid, inkor va bo‘lishsizlik ma’nolarini bera oladigan yagona vosita ekanligini misollar bilan dalillagan. R.Razzoqov bu yordamchining grammatik tabiatini shunday xulosalaydi: «hozirgi o‘zbek tilidagi anchagina faktik materiallarni lingvistik tahlil qilish natijasida *na... naning* gapda uyushgan bo‘laklarni va gaplarni bog‘lash uchun xizmat qilmasligini va uyushiq bo‘laklarga hamda gapning umumiy mazmuniga qo‘shimcha ma’no ottenkalari berishi uchun xizmat qilishini aniqladik. Bu yordamchining bog‘lovchiga xos bo‘lmagan semantik-grammatik xususiyatlarini quyidagi holatlardan ham ko‘rishimiz mumkin: Birinchidan, *na...na* vositasi bilan uyushib kelgan bo‘laklar orasida teng biriktiruvchi bog‘lovchi *va* qo‘llaniladi. Bu bog‘lovchining qo‘llanilishida ham ma’lum tartib bor: agarda *na...na* orqali uyushgan bo‘lak ikkita bo‘lsa, *va* ikkala uyushgan bo‘lak orasida keladi, lekin uyushuvchi bo‘laklar ikkidan ortiq bo‘lsa, oxirgi uyushayotgan bo‘lakdan oldin keladi va inkor-ta’kid yuklamasi orqali sanalayotgan bo‘laklarning tugaganligini ko‘rsatadi.

Demak, uyushib kelgan bo‘laklarni *na...na* emas, *va* bog‘lovchisi bog‘laydi. ***Va*** bo‘lmaganda, uyushgan bo‘laklar **sanash intonatsiyasi orqali**

²⁵ Rasulov P. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзларнинг семантик-грамматик хусусиятлари. – Т.: Фан, 1983. –Б.79.

bog‘lanadi, *na...na* esa o‘zi birga kelgan bo‘laklarga ta’kid va bo‘lishsizlik ma’nolarini beradi hamda **inkor yuklamasi** funksiyasini bajaradi.»²⁶. Darhaqiqat, kuzatadigan bo‘lsak, *Nariroqdagi xarrakning qorini sidirib tashlaydilar-da, tizilib o‘tirib, domino o‘ynashga tushadilar. YUtqazganni “taka” qilib xarrak tagidan o‘tkazadilar. (“Vaqtini o‘ldirish” kerakmi axir?) Na rais insofga keltiradi, na militsiya yo‘lga soladi.* (O‘.Hoshimov) matnida sodda gaplar *sanash ohangi* yordamida bog‘lanayotgan bo‘lsa, *Lekin dam degani na unga va na xotinlarga kerak edi* (M.M.Do‘st) misolida va bog‘lovchisi yordamida bog‘lanmoqda.

Ko‘rmoqdamizki, olim o‘z vaqtida bu vositaning yuklama ekanligini ta’kidlab, qator misollar yordamida isbotlagan. *na...*, *na* yuklamasi ayrim vositalar bilan ma’nodoshdir: **yo‘q** so‘zi bilan: *Domdagilar... Nima desam ekan... toshbaqaga o‘xshaydi. Ahyon-ahyonda zinadami, eshigingiz ro‘parasidami, qo‘shningizga duch kelasiz. Boshini kosasi ichidan chiqarib, xumrayib qarab qo‘yadi. Na salom bor, na alik... Birpas qarab turadi-da, o‘rmalab iniga kirib ketadi...* (O‘.Hoshimov). Qiyoslang: *salom yo‘q, alik yo‘q... Birpas qarab turadi-da, o‘rmalab iniga kirib ketadi... ham* bilan: *Shunda... ko‘zlariga ko‘zim tushib, yuragim seskanib ketdi, Ro‘zimat otaning ko‘zida na alam, na yosh bor edi.* (O‘.Hoshimov). Qiyoslang: *Ro‘zimat otaning ko‘zida alam ham, yosh ham yo‘q edi. -ma* bilan: *Qora qullik dardin na bilsin g‘ofil, erk, ozodlik qadrin na bilsin g‘ofil, Xalqimning tik qaddin na bilsin g‘ofil, Suvi totliq daryo oqsin har qachon, - O‘zbek, O‘zbekiston!* (A.Suyun). Qiyoslang: *Qora qullik dardin bilmaydi g‘ofil, erk, ozodlik qadrin bilmaydi g‘ofil, Xalqimning tik qaddin bilmaydi g‘ofil, Suvi totliq daryo oqsin har qachon, - O‘zbek, O‘zbekiston!; emas* bilan: *Alqissa, ne-ne ilinjlar bilan yo‘l tortgan ikki o‘rtoq o‘shanda och qoringa ustma-ust ichganu g‘iljayib bir chetda e‘tiborsiz qolib ketgan, so‘ngra murod hosil bo‘lmay – na biror ma’nili gap eshitib, na bir narsaga erishib, chayqala-chayqala shaharga qaytgan.* (E.A‘zam). Qiyoslang: *so‘ngra murod hosil bo‘lmay – biror ma’nili gap eshitmasdan, bir narsaga erishmasdan, chayqala-chayqala shaharga qaytgan.*

²⁶ Расулов Р. Ко‘rsatilgan asar, -B.111.

Umuman, bu yordamchi matnda ko‘proq ta’kid yuklamasi vazifasini bajaradi va shu bilan bog‘liq turdi xil pragmatik-stilistik xususiyatlarini namoyon etadi.

I-bob bo‘yicha qisqacha xulosalar

1. Biz yuqorida ko‘rib chiqqan barcha manbalarda yuklamalarning kelib chiqish sabablari, ularni paydo bo‘lish usullari va tasnif etish tamoyillari tilga olingan. Bu birliklarning diaxronik-sinxronik aspektdagi tavsifi va o‘ziga xos lisoniy xususiyatlari ta’riflangan.

2. Eski o‘zbek tiliga oid yozma yodgorliklar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda ham bu birliklarning alohida vazifasi yoritilgan. Ko‘rinib turibdiki, tarixan qo‘llanishda bo‘lgan yuklamalarning aksariyati iste’moldan chiqib ketgan, o‘rniga yangilari ularning vazifasini bajarmoqda. Bu birliklar o‘zbek tilining uzluksiz taraqqiy etishi natijasida mustaqil so‘z turkumlari, jumladan, ot, fe‘l, olmosh, ravish va bog‘lovchilarning yuklamalashuvidan hosil bo‘lgan yoki boshqa tillardan o‘zlashgan. Hozirgi o‘zbek tilida yuklamalar eng faol grammatik vositalardan hisoblanadi.

3. Tilimizdagi qo‘shimcha ko‘rinishidagi yuklamalar so‘z, so‘z birikmasiga tiralganda yoki gap tarkibida qo‘llanilganda albatta so‘z, so‘z birikmasi yoki gap ifodalayotgan konstruktiv, grammatik, konnotativ, pragmatik ifoda mazmunida alohida o‘rin tutadi. Qo‘shimcha ko‘rinishidagi yuklamalar doirasida o‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lgan elementlarning yanada ko‘payayotganligi ularning funksional-stilistik faolligi oshayotganidan dalolat beradi. Qo‘shimcha ko‘rinishidagi yuklamalar o‘zbek nutqida turli pragmatik ma’no jilolarini berishda juda faol va sermahsuldir.

4. So‘z ko‘rinishidagi *faqat, yolg‘iz, yakka, yagona, tanho, bir, faqatgina, yolg‘izgina, birgina* kabi yuklamalari va funksional yuklamalari o‘zaro ma’nodoshlik munosabatda bo‘lsa-da, ya’ni matnda biri ikkinchisi o‘rnida bemalol qo‘llanib kela olsa-da, biroq ular o‘zlarining xususiy farqlanishlariga ega. Ularning

ushbu o'ziga xosliklari matndan anglashilib turadi. SHunga kura ular ba'zan birlarining o'rnilarida erkin almasha, ba'zan buning imkoni bo'lmaydi. Ularning matnda tanlab ishlatilishi uslubiy talab bilan amalga oshiriladi.

5. Qo'shimcha ko'rinishidagi yuklamalar ham, so'z ko'rinishidagi yuklamalar ham kommunikativ nutq jarayonida o'ziga xos semantik-stilistik xususiyatlarini namoyon qiladi va so'zlovchi yoki muallifning pragmatik maqsadini yuzaga chiqarishda muayyan vazifalarni amalga oshiradi. Bu vositalar jumla mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatib, nutq jarayonida taajjublanish, ta'kidlash, kuchaytirish ma'nolarini ifodalashda alohida faollik ko'rsatib, o'ziga xos pragmatik-stilistik xususiyatlarini namoyon etadi.

II BOB**YUKLAMALARNING DISKURSIV FUNKSIYASI****2.1. Diskurs haqida ma'lumot**

Zamonaviy tilshunoslikda yangi yo'nalishlar sifatida tan olingan pragmatik va kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri diskurs masalasidir.

XX asrning so'nggi choragidan jahon tilshunosligida lisoniy faoliyat mahsuli bo'lgan har qanday nutqiy tuzilmani uni yaratuvchi va idrok etuvchi shaxs – muallif va retsipient muloqoti nuqtai nazaridan tadqiq etishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Nutqiy tuzilmani muloqot jarayoni sifatida o'rganish *diskurs* tushunchasining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. O'tgan asrning 50-yillarida amerikalik tilshunos Zellig Xarris tomonidan birinchi marta qo'llangan *diskurs* so'zi bugungi kunda tilshunoslikning markaziy masalalaridan birini ifodalovchi hodisani anglatmoqda. Diskurs hissiy, bevosita, intuitiv, ya'ni muhokamatalab bilimdan farqli o'laroq, muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil – isbotli bilim demakdir²⁷. Diskurs tilshunoslikda dastlab gap yoki nutqda bog'langan va kelishilgan oqibat sifatida tushunilgan bo'lsa, zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa sifatida izohlanmoqda.

Tilni pragmatik nuqtai nazardan tadqiq etishga bag'ishlangan ishlarda diskurs atamasi sakkiz xil ma'noda qo'llangan: 1) so'z muqobili; 2) frazalardan o'lchami bo'yicha ortadigan birlik; 3) nutq vaziyati hisobga olingan holda fikrning adresatga ta'siri; 4) suhbat; 5) nutqda so'zlovchi pozitsiyasi; 6) lisoniy birliklardan foydalanish; 7) fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi; 8) matn hosil bo'lish shartlarini tadqiq etishga mo'ljallangan nazariy qurilmalar.²⁸

Diskurs tushunchasi hozirgi davrda o'ta jadallik bilan sodir bo'layotgan fanlar integratsiyasini o'zida yaqqol namoyon etadi. U adabiyotshunoslik,

²⁷Абдуллаева М., Абдурашидов М., Абилов У. Фалсафа қисқача изоҳли луғат. –Тошкент, Шарқ, 126-б.

²⁸Карасик В.И. Этнокультурные типы институционального дискурса // Этнокультурная специфика речевой деятельности: Сб. обзоров. - М.: ИНИОН РАН, 2000. - С.37-64.

tilshunoslik, falsafa, tarix, sotsiologiya, antropologiya, pedagogika, siyosatshunoslik kabi fan sohalarining har birida maxsus definitiviyaga ega bo'lishi bilan birga, bugungi kunda yangi yo'nalishlardan biri hisoblangan diskursiv tahlilning ham markaziy muammolaridan biriga aylandi.

Ma'lumki, *diskurs* (fr. Diskours – nutq, harakat) termini dunyo tilshunosligida bir necha ma'noda talqin qilinadi. Bu termin dastlab *bog'lanma matn* tushunchasini ifodalagan bo'lsa, keyinchalik *suhbat*, *dialog* tushunchalariga nisbatan ham qo'llanila boshlandi²⁹. Antropotsentrik paradigmaning rivojlanishi natijasida *diskurs* termini yanada kengroq ma'noga ega bo'lmoqda. Mazkur termin ostida hozirgi kunda o'zida nolisoniy, xususan, psixologik, ijtimoiy va shaxs ongi bilan bog'liq omillarni mujassam etgan nutq tuzilmasini tushunish tendensiyasi kuchayib bormoqda³⁰. Shu bilan birga, *diskurs* so'zi ifodalagan hodisani sof tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etib bo'lmasligi, bunda shaxs omili bilan bog'liq bo'lgan bir necha fanlarning hamkorligi taqozo etilishi ham ayni kunda e'tirof etilgan haqiqatdir³¹.

Golland tilshunosi T.A.van Deyk diskursni bir nechta darajada ko'rib chiqishni taklif qiladi. U keng ma'noda diskursga kompleksli kommunikativ voqea, tor ma'noda esa kommunikativ harakatning yozma yoki nutqiy verbal mahsuloti sifatida qarash lozimligi haqida fikr bildiradi. Ta'kidlash kerakki, T.A. van Deyk diskurs va matn o'rtasidagi farqni shunday belgilaydi: diskurs – aktual aytilgan matn, ya'ni faol nutqiy harakat, matn esa til tizimiga yoki shakliy lisoniy bilimlarga tegishli fikrlarning mavhum grammatik tuzilishidir. Diskurs – aniq suhbat, aniqlik esa diskurs tushunchasi qo'llanadigan vaziyatga, matnga va obektga ham birday talluqlidir. Diskurs – suhbat turi³².

Diskurs janr kabidir. Nutqiy janr – tipik tuzilishi, lisoniy vositalardan foydalanishning o'ziga xosligi, aniq adresat, ma'lum kommunikativ maqsad va

²⁹ Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. Лингвистика текста. – М.: Прогресс, 1978. – С. 467-468.

³⁰ Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 7-8.

³¹ Бу ҳақда қаранг: Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004.

³² Дейк Т.А. ван. Язык, познание, коммуникация. - М.: Прогресс, 1989. -С. 372.

informativlik, imperativlik, etiketlik kabi jihatlari bilan ajralib turuvchi nutq turi hisoblanadi³³.

Talqin va izohlarning xilma-xilligi diskurs tushunchasining ko'p qirrali va keng qamrovli ekanligini ko'rsatadi. Insonning nutq orqali amalga oshadigan barcha ijtimoiy faoliyati diskursiv xarakterga ega. Nutqning ijtimoiy mohiyati matn bilan bog'langan bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari matnning u yoki bu ko'rinishida namoyon bo'ladi. U aniq sotsiopragmatik matnda amalga oshiriladigan, murakkab maqsadga yo'naltirilgan nutqiy harakat sifatida bir tomondan, nutqning tarixiyli bilan, ikkinchi tomondan, ijtimoiyligi bilan, uchinchi tomondan, mafkuraviyligi bilan bog'liq. Ma'lum bir individual diskursning alohida tadqiqot obekti sifatida o'rganilishi nutqning lingvopragmatik tabiati to'g'risida mulohaza yuritishga imkon beradi.

Diskurs ilmiy atama sifatida sintaktik, semantik va pragmatik xususiyatga ega. U sintaktik jihatdan ifoda plani, ya'ni strukturasi, semantik jihatdan mazmun-ma'no planiga, pragmatik jihatidan esa perlokutsiya – xabar planiga ko'ra turli fikrlar, nutqiy aktlardan tashkil topgan faoliyat sifatida tavsiflanadi.

Diskurs – bu til birliklarining ma'lum vaqtda va ma'lum joyda ma'lum maqsad bilan qo'llanilishi, ularning izchil bog'lanishidir³⁴.

Zamonaviy lingvopragmatikaning muhim muammolaridan biri «diskurs» tushunchasining *nutq*, *matn*, *fikr*, *dialog* kabi tushunchalar bilan munosabatini aniqlashdir.

XX asrning oxirgi choragida tilshunoslikda matn va diskurs tushunchalarini vaziyat kategoriyasiga suyangan holda farqlashga urinishlar bo'ldi va bu borada Evropa tilshunoslarining fikrlari deyarli bir xil. Shunday, diskurs «matn plus vaziyat» tarzida va ayni damda matn «diskurs minus vaziyat» shaklida

³³ Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь.-Ростов-на-Дону, Феникс, 2008, - С.523.

³⁴ Гурочкина А.Г. Понятие дискурса в современном языкознании // Номинация и дискурс. -Рязань, 1999. -С.13.

izohlandi³⁵. Bunday talqin unchalik ommalashmadi va keyingi ko‘plab ishlarda «diskurs» va «matn» atamasi farqlanmay qo‘llanmoqda.

Matn va uning tahlili kognitiv yondashuvning ma‘lum sharoitdagi mezonlari asosida olib borilishi kerak.

«Diskursdan farqli ravishda matn aniq vaqtga qat‘iy bog‘langan emas, uning vaqt bilan aloqasi bilvosita namoyon bo‘lish xarakterida bo‘ladi. Matn tabiiy ravishda o‘z-o‘zicha mavjud bo‘lmaydi, balki har qanday eskirishga va parchalanib ketishga mahkum bo‘lgan mavjud ob‘ektlar kabi matn ifodasi - obekt materiali qobig‘ida mavjud bo‘ladi. Aslida matn bu vaqtda emas, balki madaniyat ko‘lami vaqtida mavjud bo‘ladi»³⁶.

Shu ma‘noda matn eshitish, eslash, xotirlash maqsadida tuziladi, diskurs uchun bunday xususiyatlar xos emas, u zamonning ma‘lum vaqtida mavjud bo‘ladi. Diskurs olingan «ma‘lumot»ning grafik belgilari bilan izchil shakllangan videoyozuv yordamida matnga aylanishi mumkin. M. Ya. Dimarskiyning fikricha, faqat matngina ma‘lumotlarni to‘play oladi, diskurs esa xabar etkazishni ta‘minlovchi sifatida xizmat qiladi. SHu nuqtai nazardan matn – birinchidan kelib chiqqan ikkilamchi kommunikatsiyadir.

Funksional lingvistikada funkcionallik-strukturalilik, jarayon- natija, dinamiklik-turg‘unlik, faollik- nofaollik kabi diskurs / matn mezonlarini belgilashda qarama-qarshilikka asoslangan oppozision yondashuv etakchilik qiladi. Shunga ko‘ra «matn-natija» tuzilishi va funksional «diskurs-jarayon sifatida» ko‘rinishi o‘zaro muvofiq keladi. Shunday ekan, *gap* matn bilan bog‘liq, *fikr* esa diskursga tegishli hisoblanadi.

Diskurs tushunchasining bu tarzda talqin etilishiga, shubhasiz, antropotsentrik paradigmaning shakllanishi va rivojlanishi katta ta‘sir ko‘rsatdi. Diskursiv tahlil, obrazli qilib aytganda, bir necha lingvistik tahlil yo‘nalishlarining kesishgan chorrahasidir. Chunki diskursiv faoliyat, ya‘ni ongli tarzda nutq yaratish

³⁵ Ostman J., Virtanen T. Discourse analysis // Handbook of Pragmatics: Manual. -Amsterdam, Philadephia, 1995. -C. 240.

³⁶ Дымарский М. Я. Проблемы текстообразования и художественный текст (на материале русской прозы XIX—XX вв.). — СПб.: Издательство С.-Петербургского университета, 1999.-С.42.

va uni idrok etish³⁷ jarayoni shaxs omilini o‘rganishni taqozo etadi. Zero, har qanday nutq ko‘rinishi bu – o‘zida muayyan ijtimoiy-madaniy muhitga mansub, psixologik va kognitiv jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxs faoliyatining natijasidir. Ayon bo‘ladiki, diskursiv tahlil nutqni shaxs faoliyati sifatida o‘rganishni taqozo etadi. Bu jarayon esa lisoniy faoliyatga bir vaqtning o‘zida bir necha nuqtai nazardan yondashish kerakligini bildiradi. Ko‘rinadiki, nutqiy tuzilmani bu tarzda o‘rganish tadqiqotchiga juda katta imkoniyatlar eshigini ochib berish bilan birga, uning *diskursiv tahlil* deb nomlanayotgan “chorraha”dan o‘tishini ham taqozo qiladi.

Diskursiv faoliyat jarayonini o‘rganmasdan turib diskurs hodisasini tushuntirib bo‘lmaydi. Diskursiv faoliyat – nutq yaratish va uni idrok etish jarayoni ekan, ushbu jarayon nutq yaratuvchi – muallif va uni qabul qiluvchi – retsipient shaxsi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu o‘rinda diskursiv tahlil psixolingvistika, lingvokulturologiya, lingvistik semantika va kognitiv tilshunoslikning bir nuqtada kesishishini taqozo etadi.

Hozirgi kunda diskursiv tahlilning bir necha yo‘nalishlari mavjud. Ulardan biri diskurs interpretatsiyasidir. Diskurs interpretatsiyasi nutq tuzilmasini “ichdan” turib tahlil etuvchi, kognitiv tilshunoslik bilan uzviylikka ega bo‘lgan tahlil ko‘rinishlaridan biridir. Diskursiv tahlil tadqiqotchidan ham muallif nuqtai nazarini, ham retsipient nuqtai nazarini e‘tiborga olishni talab qiladi.

2.2. Yuklamalarning diskursiv vazifasi

Quyida yuklamalarning diskursiv vazifasiga to‘xtali o‘tamiz. Keyingi yillarda dunyo tilshunoslarining e‘tiborini tortgan qiziqarli masalalardan biri - kommunikatsiya jarayonida faol ishtirok etuvchi «diskursiv markerlar»ning (marker – shaklan so‘z qiyofasidagi birliklar) jadal rivojlanishi va safining kengayib borayotganligidir. Diskursiv markerlar birinchi navbatda ifodalanayotgan matn va diskursning o‘tgan qismi orasidagi munosabatlar haqida xabar beradi

³⁷ Седов К.Ф. Кўрсатилган асар. – С. 7-8.

(ya'ni, matn aloqadorligini ta'minlaydi) hamda kommunikatsiya paytida so'zlovchi va adresatning o'zaro munosabati jarayonini aks ettiradi. Xorij tilshunoslari diskursiv markerlar sirasiga yuklamalar, bog'lovchilar, modal so'zlar, undovlar, ravishlar kabi ko'plab morfologik-sintaktik birliklarni kiritishadi. Bu birliklar doimiy tadqiqotlar ob'ektiga aylangani uchun diskursiv markerlar rivojlanishiga bag'ishlangan qator tadqiqotlar yuzaga kelgan.³⁸ Tadqiqotchilar rus tilidagi diskursiv so'zlar sifatida quyidagilarni ko'rsatishgan: *voobshe, v samom dele, vovse, sovsem, pryamo, prosto, tolko, lish, vsego, po krayney mere, naoborot, opyat-taki, vse je, vsyo ravno, kstati, vprochem, krome togo, da i, kak raz, imenno, razve, neujeli, naverno, avos, nebos, pojaluy, konechno, razumeetsya, estestvenno va b.*³⁹ Ingliz tilidagi diskursiv so'zlar: *anyway, after all, though, in fact, indeed, besides* kabilardir.⁴⁰ Xuddi shuningdek, o'zbek tilida ham nutq jarayonida faol ishtirok etib, turli-tuman pragmatik vazifalar bajaruvchi so'zlar juda ko'p. Ular sirasiga biz ham modal so'zlar, undovlar, yuklamalar, bog'lovchilar, kiritmalar, so'z-gaplar kabilarni kiritishimiz mumkin. Biz shunday so'zlardan bir guruhini «diskursiv yuklamalar» atamasi ostida tahlil qilishni maqsad qildik. Bizningcha, o'zbek tilidagi diskursiv yuklamalar sirasiga quyidagi so'zlarni kiritishimiz mumkin: *bale, bu, zab, hali, labbay, mayli, mana, ana, tuzuk, e, qani endi, qani, ishqilib, aytmoqchi, birinchidan, nega desang, baribir, o'lgur, qurgur, tushgur, bo'lgani bo'ldi, aytgin-aytgin, boringki, qo'yingki, kel, kelib-kelib, deyman, bu deyman, degin, shunday deng, yaxshisi, kimsan, poshsho, bilasizmi, bormi, shunday, endi, ha* kabilar. Albatta, bu qatorni davom ettirish mumkin. Bu o'rinda funksional-semantik jihatiga ko'ra yuklamalarga yaqinlashgan birliklargina diskursiv yuklamalar sifatida qaraldi. Shuni ham e'tirof etish lozimki, bu birliklarning ba'zilari boshqa ilmiy manbalarda modal so'zlar turkumiga ham qo'shilgan. Ammo ularning nutq jarayonidagi o'ta faolligini hisobga olib,

³⁸ Баранов А.Н., Плугян В.А., Рахилина Е.В. Путеводитель по дискурсивным словам русского языка. М., 1993; Дискурсивные слова русского языка: опыт контекстно-семантического описания / Ред. К.Л.Киселёва, Д.Пайар. – М., 1998.

³⁹ Дискурсивные слова русского языка: опыт контекстно-семантического описания / Ред. К.Л.Киселёва, Д.Пайар. – М., 1998.

⁴⁰ Traugott E.C. Кўрсатилган асар. 323-б.

diskursiv yuklama sifatida baholadik. Demak, ta'kidlashimiz mumkinki, til taraqqiyotining doimiyliги natijasida morfologik sathning so'z turkumlari paradigmasidagi «yuklamalar» bo'limi tarkibi ana shunday so'zlar hisobidan boyib bormoqda. Bu siraga qo'shilayotgan yuklamalar matn mazmunining kognitiv-diskursiv xususiyatlarini oydinlashtirishda faol ishtirok etmoqda. Asosan nutqiy vaziyatlarda yoki matndagi personajlar nutqida ma'lum pragmatik maqsadlarda ishlatiluvchi bu so'zlarni ilmiy adabiyotlarda, darsliklardagi an'anaviy yuklamalardan biroz farqlash maqsadida shartli ravishda «*diskursiv yuklamalar*» termini ostida tahlil qilishni mo'ljalladik.

So'zlovchi o'z nutqini bayon etishdan avval uni ichida grammatik jihatdan shakllantiradi. Avval ongda ifodalanmoqchi bo'lgan fikr jamlanib, saralanadi va oniy tezlikda kerakli so'zlar tanlanib bir tizimga keltiriladi hamda shu vaqtning o'zida qo'shimcha ma'no jilosini berish uchun matnga mos bo'lgan kerakli vositalar tanlanadi. Bu holatda so'zlovchi yoki matn tuzuvchiga (ijodkorga) ifodalaniyotgan nutqiy vaziyatning tabiiy chiqishini ta'minlash uchun birinchi navbatda diskursiv yuklamalarga ehtiyoj seziladi. Ana shuning uchun diskursiv yuklamalar kommunikativ strategiyani belgilashda alohida rol o'ynaydi. Matn yaratuvchisi bo'lgan muallifning nutqiy jarayonga o'z munosabatini bildirishida diskursiv yuklamalar muhim o'rin tutadi va shuningdek, matn strategiyasini belgilashda faol ishtirok etuvchi elementlardan hisoblanadi.

Demak, diskursiv yuklamalar so'zlovchi yoki yozuvchining pragmatik mo'ljalini voqelantirishda hamda muloqot sub'ekti bo'lgan tinglovchi yoki o'quvchiga ta'sir o'tkazish jarayonida alohida vazifani bajaradi. Muloqot yoki matn orqali muallif o'quvchiga ta'sir o'tkazishning turli usullaridan (epistemik, denotik, aksiologik) foydalanishi jarayonida, albatta, bu jarayondagi emotsional-ekspressiv buyoqdorlikni oshirish uchun matn strukturasi ga yuklamalarni kiritadi. Natijada, yuklamalar matn kompozitsiyasini shakllantirishda xizmat qiluvchi muhim vositalardan biriga aylanadi. Buni his qilish uchun u qatnashgan matnni usiz tasavvur qilib ko'rishning o'zi kifoya. SHunda uning matndagi ta'siri yaqqol seziladi. SHuning uchun so'zlovchi yoki matn yaratuvchisi pragmatik niyatini

voqelantirishda diskursiv yuklamalardan unumli foydalanishga harakat qiladi va shunga intiladi. Ijodkorlar matn yaratish jarayonida ko'p hollarda diskursiv yuklamalarga murojaat qilishadi. Umuman, nima sababdan bu so'zlarga ehtiyoj seziladi? Bu holni shunday izohlash mumkin: birinchi navbatda bu so'zlar matn tabiiyligini ta'minlashga xizmat qilsa, keyin muallifning matnda mo'ljallagan niyatlaridan birini ifodalashni o'z zimmasiga oladi. Ana shu holatda biz matnning shunchaki axborot uzatuvchi emasligini, uning zamirida tinglovchiga yoki o'quvchiga emotsional-ekspressiv ta'sir qilish maqsadi yashiringanini anglaymiz.

Diskursiv yuklamalardan unumli foydalanish ko'p hollarda muallifning individual mahoratiga bog'liq bo'ladi. U grammatik jihatdan matn strukturasi shakllantirish jarayonida u bilan bog'liq, undagi vaziyatga mos, ya'ni holatni ifodalashga ko'maklashadigan diskursiv yuklamalardan foydalanadi. «Zero, badiiy asar muallifi tasvirlanayotgan voqea hodisalarga befarq bo'lmaydi, ularga nisbatan o'z shaxsiy munosabatini bildiradi. Bu munosabatni, o'z navbatida, oddiy bayon qilmaydi, u o'quvchiga tez va kuchli ta'sir o'tkazadigan lisoniy vositalardan tanlab ishlatadi.»⁴¹ Demak, muallif kommunikativ maqsadni ko'zlab yaratayotgan har qanday matnga ta'sir etuvchi, umuman shu matn tabiatiga mos diskursiv yuklamani tanlaydi. Binobarin, o'quvchiga matn mazmunini etkazishda yoki undagi kommunikativ-pragmatik mazmunni idrok ettirishda bu turkum so'zlar alohida mavqega ega bo'ladi. Diskursiv yuklamalar matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantirishda alohida o'rin tutuvchi vositalardan hisoblanadi. Aslida yuklamaning bu turini yuzaga kelishida «*muallif - qabul qiluvchi (retsipient)*» hamkorligining turli tuman munosabatlarini yorqinroq ifodalash orqali matnning pragmatik imkoniyatlarini oydinlashtirish maqsadi sabab bo'lgan. «Matn mazmunining kognitiv qatlami insondagi hissiyotning voqelikka baho bera olish vazifasining, qobiliyatining faollashuvi bilan uyg'un tarzda shakllanadi. Zotan, hissiyot ifodasida insonning voqelikka bo'lgan munosabati etakchi o'ringa chiqadi. Shunga ko'ra, matn semantik maydonlarining modallashuvi muloqot sub'ektlariga xos shaxsiy kognitiv tizimlarning faollashuvi

⁴¹ Боймирзаева С. Матн модаллиги. Т.: Фан, 2010. 24-б.

bo‘lib, ushbu faollashuv natijasida lisoniy birliklar tanlovi hosil bo‘ladi.»⁴² Ko‘p hollarda nutq vaziyatidagi faolligi uchun diskursiv yuklamalar lisoniy birliklar tanlovida etakchi o‘rin tutadi. Darhaqiqat, diskursiv yuklamalar matndagi kommunikativ jarayonni yaqqol jonlantiruvchi modallik kategoriyasi unsurlari sirasiga kiradi. Diskursiv yuklamalarga misol keltiramiz.

Bor so‘ziga *-mi* yuklamasining qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan *bormi* diskursiv yuklamasi matndagi ta’kidni kuchaytiradi. Masalan: *Omading bor ekan, soldat! o‘q tank zirhidan sachrab, belingga tegibdi. Agar aortaga tegsa **bormi**, hozir yashikda yotgan bo‘larding...* (O‘.Hoshimov); Qiyoslang: *Agar aortaga tegsa, hozir yashikda yotgan bo‘larding...* Ko‘rmoqdamizki, gapdagi shart ma’nosi –sa qo‘shimchasi tomonidan shakllantirilmoqda.

Aqalli diskursiv yuklamasi ham matnga kuchli ta’kid ma’nosini berish uchun qo‘llaniladi. Masalan: *Qani, burchakka tur! Bir oy emas, **aqalli** uch kun uxlamay ko‘r-chi!* (O‘.Hoshimov); *Suzishga usta edi. Qiziq, uvvallo urinadiki, qani **aqalli** bir quloch surilsa! Ilgari oqimga qarshi hech so‘zmagan ekan.* (O‘.Hoshimov). Bu yuklamaning *loaqal* varianti ham shu ma’noda ishlatiladi: *Otiga Huriniso opam mudir bo‘lsalar ham, bog‘cha Kifoyatxonning qo‘lida. Bog‘cha **loaqal** o‘rta ma’lumotli pedagog qo‘lida bo‘lishi kerak, Huriniso opam o‘qigan, bir vaqtlar tuppa-tuzuk o‘qituvchilik ham qilgan ekanlar...*(A.Qahhor); *Buning ustiga «hurriyatda chiqqan pul»ga odamlar shubha bilan qarashar, «hukumat **loaqal** ikki taxta oq tunuka ham topolmay, qog‘oz tanga chiqargan bo‘lsa, uyog‘iga voy», deyishar edi.* (A.Qahhor).

Faqat sof yuklamasining sinonimi bo‘lgan *bor-yo‘g‘i* diskursiv yuklamasi matnda o‘zi birikkan so‘zni ayirib, chegaralab ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Masalan: *Bola onasi boshini opichlab bordi. Ovoz berib, yig‘lay, dedi. Onasidan qo‘rqdi. Onasi oyoqlarini chimchilab olishidan qo‘rqdi. Bola **bor-yo‘g‘i** ing-ing etib bordi.* (T.Murod); ***Bor-yo‘g‘i** besh-olti yoshlik musulmalar buncha ilmni qachon o‘rganib oldi?* (T.Murod).

⁴² Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: филол. фан. д-ри дисс. автореф. – Тошкент, 2010. 26-б.

Qaydam diskursiv yuklamasi soʻzlovchining istihola qilish, oʻzi bidirayotgan axborotga bir oz ishonchsizlik kabi pragmatik maʼnolarni ifodalaydi. Masalan: - *Yoʻq, - sartarosh qitigʻimni keltirib tagʻin boʻynimga mashina soldi. Shilt etib burnimni tortdim. - Maʼlimlarni urushga olishmagan. Ammo mera-voy bola! Nima, quda boʻlmoqchimisizlar? - Qaydam, - dedi oyim sekin. - Taqdir qoʻshgan boʻlsa... (Oʻ.Hoshimov); - Astagʻfurullo, Qizil namoz oʻqiydimi? Qizil kofirdan battar-ku? Oʻz oti oʻzi bilan Qizil-ku? Qaydam, dargohga... uchirmoqchidir. (T.Murod).*

shoʻrlik diskursiv yuklamasi: *Bu ketishda undan haqiqiy militsioner chiqishi gumon. SHoʻrlik, umr boʻyi pogoni yulduz koʻrmay oʻtib ketadi. (E.Aʼzam).*

boyoqish: - *Unaqa demang, ovsinjon. - Oyim osoyishta ohangda yupatadi. - Kelingiz yomon bolamas, qaysi kuni koʻchada koʻrib qoldim. Ogʻzidan bol tomib sizni maqtadi boyoqish. (Oʻ.Hoshimov).*

Durust soʻzi: *Sinchalak va shlyapa toʻgʻrisidagi gapni eshitib Nosirov xoʻp kuldi. - Durust, durust, - dedi, - ishimizda siljish bor. Bu gaplarni menga arz qilib aytmaganingizning oʻzi ishimiz baroridan kelayotganini koʻrsatib turibdi. (A.Qahhor). Ushbu soʻzning sinonimi boʻlgan tuzuk soʻzi ham shu mazmunda ifodalanadi: *Yoribek omonatgina choʻkdi. Usmon Akram ham oʻtirdi. - Xoʻ-oʻsh, qalay endi. Uydagilar sogʻ-omonmilar? - Durust...Salom aytishdi... - Tuzuk, tuzuk; salomat boʻlishsin. Bugun kelganmidilar? - ha-a. - Tuzuk, tuzuk; yaxshi qiptilar. Mehmonxona-pehmonxonaga joylashib oldilarmi, yoinki bugunoq qaytmoqchimilar... (Sh.Boʻtaev).**

Bu diskursiv yuklamasi: - *Chamasi, taqdirga tan berdi. Bu, Toshkentga borsang, albatta, togʻangnikiga Kir, u senga yordam beradi, deganidan ayon boʻldi. (Sh.Boʻtaev) Oshxonada choy qaynatayotgan oyimning oldiga kirdim. - Bu, yana «bogʻ arolab» borish boshlanibdi-ku, kim ichirdi? - Bilmasam, - deydi oyim menga qaramay. - Ichgani yoʻq shekilli. (Oʻ.Hoshimov).*

Ana diskursiv yuklamasi: - *Ana, masala ravshan! - dedi Ahmadxonov oshkora tantana bilan. (E.Aʼzam). - Ana, - deya uning ogʻzidan soʻzini ilib*

qizlarga yuzlandim, - aspirant tap-tayyor! Birortalaring shartta tegib olinglar. Aspirant-a! Buning ustiga otasi sovxoz direktorii!.. (E.A'zam)

Mana diskursiv yuklamasi: - Mana, necha o'n yillik qabohat va razolatlardan so'ng, nihoyat Otashqalb shoirimizning pok nomi chinakkamiga oqlanayotir. (E.A'zam) –Eb-e, taqdir-peshonamizga nima qilibdi, eb-e? Mana, kino bo'lib tarixda qolyapmiz! Bu kunlar o'tadi-ketadi – tarixda qolganimiz yonimizga qoladi! (T.Murod) matnlarida mana olmoshi o'zining an'anaviy dealektik belgisiga ko'ra ko'rsatish ma'nosida emas, balki matndan anglashilayotgan harakatning ayni damda yuz berayotganligiga ishora qilmoqda.

Nima diskursiv yuklamasi: Teradi. Baribir teradi! Nima, boshqalardan kam joyi bormi? Tushga yaqin ikkinchi etak ham to'ldi. Yuk og'irlik qilganidan ikki bo'klanib qoldi. Etakni bo'ynidan tushirib, birpas dam oldi. (O'.Hoshimov); - Rais bova, nima, umr bo'yi qirchillama yigit bo'lib o'taman, deb edingizmi? - dedi. - Qarilik qariligini qiladi-da. (T.Murod).

Qani diskursiv yuklamasi: -Qani, menga ber, qani, - dedi Ivan Ivanovich. – Ay, kuchingdan, jigit! (T.Murod); - Ha-a, Komissar! Qani, bir g'ayrat qil-chi, ko'ramiz suvga teskari suzish qanaqa bo'larkan? Buning otini Qonqus deb qo'yibdi, o'v! (O'.Hoshimov); “Qo'rqmas ekansan-a!” deb o'yladi Grisha mamnun bo'lib. Qani, ayt gaping bo'lsa, degandek ochiq deraza oldida poylab turdi. (O'.Hoshimov); - Qani, tuyog'ingni shiqillat-chi! - dedi Grisha tishini g'ijirlagib. - Hozir militsiya chaqiraman! (O'.Hoshimov); - Qara-ya! Nemis odam ekanmi, qani bir boshdan aytib ber-chi! (O'.Hoshimov).

kimsan diskursiv yuklamasi: - Ajab odamsiz-da, Dehqonqul aka. Kinochilar bizni omizga ochidan o'lib kelayotgani yo'q. Mehmon osh deb kelmaydi. Qo'y obro'y-da. Kimsan – katta bir xo'jalikni mash'al brigadiri! Semizlikni qo'y ko'taradi, Dehqonqul aka.(T.Murod); - Siz kimni zurriyotini bozorga olib chiqqaningizni bilyapsizmi? Kimsan, Mirzaxo'jaboyni zurriyoti! (T.Murod); Boisi, Mirzaxo'jaevani ana shu qizi haqida uzun-kalta gaplar eshitdi. Yaxshi-yomon gaplap eshitdi. – Ammo-lekin shunday faollarimizni qizi ishqboz bo'lsa,

boshqalardan nima umid, nima xayr? – dedi raykom Esonov. – Kimsan, ilg‘or faol Obod Mirzaxo‘jaevani qizi nopok yo‘llardan yursa. (T.Murod).

Qayda diskursiv yuklamasi: - *Xotin-qizlarni chekib-ichishi eskichagayam to‘g‘ri kelmaydi, Botir Esonovich. Dilyaga ko‘p aytdim. «Chekma-chekma» dedim. Qayda, foydasi bo‘lmadi.* (T.Murod).

Kel, ke, keling diskursiv yuklamasi: *Qolaversa, uchinchi qavat ham, ikkinchi qavat ham o‘zimning yo‘lim. Ertaga yakshanba, kel, asta-sekin ermak qilaveraychi, birortasi chiqib ko‘maklashar».* (E.A‘zam); - *Keling, o‘sha narsa chiqmasa chiqmay qo‘ya qolsin.* (O‘.Hoshimov); *Ba‘zan bu so‘zning so‘zlashuv uslubiga xos ke varianti ham xudi shu mazmunda qo‘llaniladi: - Ke, borsam boray, - dedi o‘ziga o‘zi. – Picha mizg‘ib kelaman...* (Sh.Bo‘taev); *«Shu sening inspektorligingga direktorligimni bajonidil almashardim, ke, shunday qilaylik», deb qoladi gohida hazillashib.* (E.A‘zam).

Qo‘ying diskursiv yuklamasi: *U oyimlarning institutida ishlaydi, uyimizga kelib turadi. Oyim uni «diletant» deydilar. E, qo‘ying o‘shani, unuting!* (E.A‘zam). *Deylik, aytaylik* diskursiv yuklamasi: *Bilmaydiki, basharti biron insofli odam deylik, men pardani bir chetga surib, yo‘l ochib berganim taqirda ham, kapalak baribir ozodlikka chiqolmaydi.* (O‘.Hoshimov); - *O‘sha tomondan shovqin-suron, deylik, deraza singani eshitildimi? - Yo‘q.* (O‘.Hoshimov). *Ko‘plar hamma go‘r – bir go‘r, deydi. Yo‘q, hamma go‘r – bir go‘r emas, yo‘q! Go‘r bilan go‘rni farqi bor. Aytaylik, bir inson dunyodan ko‘z yumadi. Uni olib borib qabrga ko‘madilar. Bo‘ldi, shu bilan u zotni unutadilar, otini atamaydilar. Boisi, u zot bu dunyosida birorta ezgulik yaratmagan bo‘ladi.* (T.Murod).

aytgancha, aytganday, aytmoqchi diskursiv yuklamasi: - *Siz fransuz avangardizmini qaerdan bilasiz, O‘rtoq Mirzaxo‘jaeva? – deya jilmaydi raykom Esonov. - Men tushunmayman, Botir Esonovich. Qizimdan eshitaman, qizimdan. - Aytganday, qizingiz shoira bo‘ldi-a?* (T.Murod); *Aytmoqchi, Ermon buva hech qaysimizni otimizni bilmaydi. O‘g‘il bolalarning hammasi uning uchun qoravoy, qizlarning hammasi popuk.* (O‘.Hoshimov).

Bo'pti diskursiv yuklamasi: - *Menam oboraman! - dedim irg'ishlab. - Qopda oboraman! - **Bo'pti**, - oyim boshimni siladi. - Sen qop ko'tarolmaysan, chelakda oborasan. (O'.Hoshimov); Akalarim kinoga borsa, men qarab turarmidim. - Men ham boraman, - dedim qaysarlik bilan. - **Bo'pti**, borasan. Aytgan ishlarimizni hammasini qilsang, oboramiz. (O'.Hoshimov).*

bilmayman diskursiv yuklamasi: **Bilmayman**, sakrab turib basharasiga musht tushirdimmi yo ustimga egilganida urib yubordimmi... Shunisi esimdaki, u so'lagi sachrab ketgan labini artib qandaydir g'ayritabiiy, behayo iljaydi-da, indamasdan chiqib ketdi. (O'.Hoshimov).

qarasam Bu diskursiv yuklamasi: - *O'tin tegib ketdi, — dedi onam sekingina. — **Qarasam**, o'tin o'lgur qolmabdi. Bolalar o'qishda, adasi ishdalar. Ko'zliroq sarjin ekan, tesha bilan urganimni bilaman... — Onam qovog'ini silab qo'ydi. — Adasi ishdan kelib juda xafa bo'ldilar. «Birpas sabr qilmaysanmi, o'zim yorib bermaymanmi», dedilar. (O'.Hoshimov). **Qarasam**, dadasi har kuni xirmon sovurishga so'ppayib borib so'ppayib qaytib kelyaptilar...(Sh.Bo'taev). Ushbu matnlarda bu so'z modal ma'no ifodalamoqda. Ba'zan bu so'zning «qarab tursam» shakli ham ishlatiladi: *qarab tursam, bu ishga mening o'quvim yo'q* (So'zlashuvdan).*

Bilasizmi diskursiv yuklamasi: *Qon ichida... **Bilasizmi**, qip-qizil qon ichida... Ishonsangiz... Uyga qandoq etib kelganimni bilmayman. Qarasam, uy to'la odam. Militsiyalar... Qora kiyimlilar... (O'.Hoshimov); - **Bilasizmi**, uka, nuqul shuni o'ylab, yaxshi qilmayapsiz. Aytdim-ku, xayolingizda faqat bir narsa aylanaversa, tormozlanish kuchayib ketadi. (O'.Hoshimov).*

Bo'lmasa diskursiv yuklamasi: *Rusning ajoyib maqoli bor: “Baxting chopmas edi-ku, baxtsizlik joningga ora kirdi-da”. O'sha kuni yaxshiyam hushyorxonaga tushgani, **bo'lmasa** tinch qo'ymasdi bular! (O'.Hoshimov); - Quloq sol, - dedi g'ijinib. - Nega meni senlaysan? Talaba pinagini buzmadi. - **Bo'lmasa**, nega sen otang tengi odamni senlaysan?! Sening yurtiingda tarvuzning bir tishlami sakkiz so'm. O'qiganman o'sha yoqlarda! hammasini bilaman. (O'.Hoshimov).*

Boringki diskursiv yuklamasi: *Toshquvvatning ko‘z qarashlaridan, qo‘l harakatlaridan, gap-so‘zlaridan – boringki, butun vujudidan aysh-ishratga, rohat-farog‘atga cheksiz tashnalik yog‘ilib turganday edi.* (SH.Bo‘taev).

kim bilsin diskursiv yuklamasi: *Jangovar trevoga e‘lon qilindi. Hammayoq yugur-yugur bo‘lib ketdi. Bundan chiqdi, jang bo‘ladi! **Kim bilsin**, dushman biron ob‘ektga hujum qilgandir. Yo‘lda borayotgan kolonnaga shoshilinch yordam kerakdir.* (O‘.Hoshimov); - *Qalay, namoz o‘qib turibsanmi? Qurbonoy xolaning yuragi shig‘ etdi. Kechagi tergovchi aytgan! Yaxshi bolaga o‘xshovdi-ku? **Kim bilsin**, tag‘in...* (O‘.Hoshimov).

Shunday deng diskursiv yuklamasi: – *Shoshmang, shoshmang,– dedi Saidiy quti o‘chib,– boshqa uzrim bor. – Ha, **shunday deng!** Bu uzringizni yacheykaga aytganmidingiz?* (A.Qahhor); ***SHuytib deng**, to‘rt-beshtasini moshinaga o‘tqazib qishloqqa olib qaytaman.* (E.A‘zam).

Tag‘in deng diskursiv yuklamasi: *Bu ham kamdek, uning axloqsiz sarguzashtlarini erinmay bir boshdan, **tag‘in deng**, mehr bilan tasvirlaydi.* (E.A‘zam). *Qurbon pravasini oldirib qo‘ygani chatoq bo‘pti. **Tag‘in deng**, Norqul milisaga. Koshki, u odamga o‘xshasa, borib turgan battol-a!* (E.A‘zam).

harna diskursiv yuklamasi: *Qirq besh kishidan iborat bizning to‘pimiz chekiga Mirzacho‘ldagi «Boyovut» sovxozi tushdi. Sovxozga qarashib, og‘irini **harna** engil qilib, dala shabadasini eb, kuz gashtini surib kelamiz, degan niyatda yo‘lga hamma shavq-zavq bilan otlandi.* (A.Qahhor).

Endi diskursiv yuklamasi: - *Ha, **endi**, gimn bo‘lgach, to‘liq bo‘ladi-da, o‘rtoq Rashidov.* (T.Murod); - ***Endi**, gap bunday, otaxon. Siz ham, o‘rtoq Rajabov ham ona-vatanga xizmat qilib qo‘ygan zotsizlar! Shu sabab, men sizlarga yomonlik sog‘inmayman. Aslo, haligilar holiga tushmangizlar.* (T.Murod).

Bu qatorni yana ham davom ettirish mumkin. Chunki o‘zbek tilida diskursiv vazifa bajaradigan so‘zlar ko‘p.

Ikkinchi bob bo'yicha qisqacha xulosalar

1. Tilimizda yuklamalar nutq jarayonida turli pragmatik ma'no jilolarini berishda juda faol va sermahsuldir. So'z, so'z birikmasiga tirkalganida yoki gap tarkibida qo'llanilganida albatta so'z, so'z birikmasi yoki gap ifodalayotgan konstruktiv, grammatik, konnotativ, pragmatik ifoda mazmunida alohida o'rin tutadi.

2. Yuklamalar doirasida o'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan elementlarning yanada ko'payayotganligi ularning stilistik-pragmatik faolligi oshayotganidan dalolat beradi.

3. So'z ko'rinishidagi *faqat, yolg'iz, yakka, yagona, tanho, bir, faqatgina, yolg'izgina, birgina* kabi yuklamalari va funksional yuklamalari o'zaro ma'nodoshlik munosabatida bo'lsa-da, ya'ni matnda biri ikkinchisi o'rnida bemalol qo'llanib kela olsa-da, biroq ular o'zlarining xususiy farqlanishlariga ega. Ularning ushbu o'ziga xosliklari matndan anglashilib turadi. Shunga kura ular ba'zan birbirlarining o'rnilarida erkin almasha, ba'zan buning imkoni bo'lmaydi. Ularning matnda tanlab ishlatilishi uslubiy talab bilan amalga oshiriladi.

4. Qo'shimcha ko'rinishidagi yuklamalar ham, so'z ko'rinishidagi yuklamalar ham kommunikativ nutq jarayonida o'ziga xos pragmatik-stilistik xususiyatlarini namoyon qiladi va so'zlovchi yoki muallifning pragmatik maqsadini yuzaga chiqarishda muayyan vazifalarni amalga oshiradi. Bu vositalar jumla mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatib, nutq jarayonida taajjublanish, ta'kidlash, kuchaytirish ma'nolarini ifodalashda alohida faollik ko'rsatib, o'ziga xos pragmatik-stilistik xususiyatlarini namoyon etadi.

5. Diskursiv yuklamalar muallif va presonaj strategiyasini oydinlashtirib, matn ijodkorining qahramonga yoki matndagi muayyan nutqiy vaziyatga shaxsiy munosabatini ifodalashga yaqindan yordam beradi. Ushbu matnlarda diskursiv yuklamalarning qo'llashdan ko'zlangan maqsad esa matn jozibadorligini oshirish va o'quvchi tasavvurida yuzaga kelgan manzarani obrazli qilish, qahramonni o'quvchi ko'ngliga yaqinlashtirish, hayrixohligini oshirish, rahmini o'yg'otish,

qadrdonlashtirish, uning faoliyatiga rag‘bat bildirish, yoqlash yoki suhbatdoshning e‘tiborini tortish kabi tuyg‘ularni shakllantirishdan iboratdir. Ammo shuni ham ta‘kidlash lozimki, bu so‘zlarni ayni paytda butunlay yuklamalar sirasiga o‘tgan deb bo‘lmaydi. Bu so‘zlarni sof yuklamalardan ajratib turadigan xususiyati ularning hozirgi o‘zbek adabiy tilida, bir tomondan, o‘z leksik ma’nosini saqlab kelayotganligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, gapda fikrning voqelikka munosabat ifodalash uchun xizmat qilishida ko‘rinadi. Shu nuqtai nazardan, bu so‘zlarni vazifadosh yuklamalar deb guruhlaganimiz ma’qul.

XULOSA

O‘zbek tilining bugungi bosqichida tildagi har bir grammatik vosita o‘zining uslubiy bahosini olayotganligi sababli, ushbu malakaviy bitiruv ishida o‘zbek tilidagi yuklamalarning diskursiv vazifasini o‘rganish yo‘nalishida olib borilgan tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bugungi kunda o‘zbek tilining kommunikativ-pragmatik imkoniyatlari nihoyatda kengayib bormoqda va, ayniqsa, so‘zlashuv nutqining o‘ziga xos kommunikativ funksiyasining kuchayishiga yuklamalarning alohida xizmati yuzaga kelmoqda.

2. O‘zbek tilidagi yuklamalar nutqiy ta’sirchanlik vositasi sifatida boshqa grammatik vositalardan ustunlik jihatlari ko‘p bo‘lib diskurs jarayonida ham, matn tuzish jarayonida ham ularni maqsadga muvofiq tarzda tanlash va foydalanish imkoniyatlari mavjud. Binobarin, ushbu tadqiqotda qo‘shimcha ko‘rinishidagi yuklamalarning ham, so‘z shaklidagi yuklamalarning ham o‘zbek pragmalingvistikasining predmeti sifatidagi mohiyati ochib berildi.

3. Tilimizda yuklamalarning diskursiv funksiyasi juda rang-barang bo‘lib, keyingi yillarda yuklamalar nutq jarayonidagi ta’sirchanlikni oshirishda muhim uslubiy vositaga aylandi.

4. Kelgusida ushbu tadqiqot natijalari kommunikativ tilshunoslik, ayniqsa, uning muhim sohasi bo‘lgan kommunikativ stilistikaning rivojiga, lingvopragmatikaga ma’lum darajada hissa bo‘lib qo‘shiladi. Shuningdek, bu ish kelgusida o‘zbek tilshunosligida yuklamalarning ma’naviy guruhlari, ularning paradigmatic va sintagmatik munosabatlari, semantik strukturasi va uslubiy xususiyatlariga oid monografiyalar va o‘quv qo‘llanmalari yaratish uchun material bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot natijalaridan boshqa yordamchi so‘zlarning diskursdagi faolligini tadqiq etishda foydalanish mumkin.

5. Tilimizda yuklamalar nutq jarayonida turli pragmatik ma’no jilolarini berishda juda faol va sermahsuldir. So‘z, so‘z birikmasiga tirkalganida yoki gap tarkibida qo‘llanilganida albatta so‘z, so‘z birikmasi yoki gap ifodalayotgan

konstruktiv, grammatik, konnotativ, pragmatik ifoda mazmunida alohida o‘rin tutadi.

6. Qo‘shimcha ko‘rinishidagi yuklamalar ham, so‘z ko‘rinishidagi yuklamalar ham kommunikativ nutq jarayonida o‘ziga xos pragmatik-stilistik xususiyatlarini namoyon qiladi va so‘zlovchi yoki muallifning pragmatik maqsadini yuzaga chiqarishda muayyan vazifalarni amalga oshiradi. Bu vositalar jumla mazmuniga jiddiy ta‘sir ko‘rsatib, nutq jarayonida taajjublanish, ta‘kidlash, kuchaytirish ma‘nolarini ifodalashda alohida faollik ko‘rsatib, o‘ziga xos pragmatik-stilistik xususiyatlarini namoyon etadi.

7. Yuklamalarning diskursiv funksiyasi muallif va presonaj strategiyasini oydinlashtirib, matn ijodkorining qahramonga yoki matndagi muayyan nutqiy vaziyatga shaxsiy munosabatini ifodalashga yaqindan yordam beradi. Ushbu matnlarda diskursiv yuklamalarning qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad esa matn jozibadorligini oshirish va o‘quvchi tasavvurida yuzaga kelgan manzarani obrazli qilish, qahramonni o‘quvchi ko‘ngliga yaqinlashtirish, hayrixohligini oshirish, rahmini o‘yg‘otish, qadrdonlashtirish, uning faoliyatiga rag‘bat bildirish, yoqlash yoki suhbatdoshning e‘tiborini tortish kabi tuyg‘ularni shakllantirishdan iboratdir. Ammo shuni ham ta‘kidlash lozimki, bu so‘zlarni ayni paytda butunlay yuklamalar sirasiga o‘tgan deb bo‘lmaydi. Bu so‘zlarni sof yuklamalardan ajratib turadigan xususiyati ularning hozirgi o‘zbek adabiy tilida, bir tomondan, o‘z leksik ma‘nosini saqlab kelayotganligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, gapda fikrning voqelikka munosabat ifodalash uchun xizmat qilishida ko‘rinadi. Shu nuqtai nazardan, bu so‘zlarni vazifadosh yuklamalar deb guruhlaganimiz ma‘qul.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони // «Халқ сўзи», 2017 йил 8 февраль, №28 (6722).

II. ilmiy-nazariy adabiyotlar:

3. Абдуллаева Н. “Маҳбуб ул–қулуб”да юкламалар / Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2002. – № 3. – Б. 58-59.
4. Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари: Филол.фан.д-ри. дис. автореф. –Тошкент, 2005. -44 б.
5. Амиралиев К. Семантико–грамматические функции частиц тюркских языков (на материале каракалпакского, узбекского, казахского языков): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата: ИЯ, 1980. – 29 с.
6. Асқарова М. Боғловчи–юкламалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1962. – № 5. –Б. 5-12.
7. Аҳмедов А. –ми юкламаси ва унинг қўлланишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1961. – № 3. –Б. 45-49.
8. Аширбоев С., Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси (ўқув–усулий қўлланма). – Тошкент, ТошДПУ нашри, 2002. –137 б.
9. Бабахонова Д. Официально-деловой стиль современного узбекского литературного языка: Автореф.дис. ... канд. филол.наук. – Ташкент,1987.18 с.
- 10.Базаров О. Частицы в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М.: ИЯ, 1983. – 22 с.

11. Баранов А., Плугян В., Рахилина Е. Путеводитель по дискурсивным словам русского языка. – М., 1993. – 109 с.
12. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида гап синтаксиси ва сўз-гапнинг систем-структур талқини. – Тошкент: Фан, 2006. – 123 б.
13. Бозоров О. Ёрдамчи сўзларнинг долзарб масалалари / Айюб Гуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари: Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: ЎзМУ нашри, 2007. – Б. 38-41.
14. Бозоров О. Ўзбек тилининг юклама категорияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1977. – № 2. – Б. 24-28.
15. Боймирзаева С. Матн модаллиги. – Тошкент: Фан, 2010. – 150 б.
16. Гак В. Высказывание и ситуация // Проблемы структурной лингвистики. – М.: Наука, 1973. – 152 с.
17. Дмитриев Н. Служебные слова в турецком языке // Советское языкознание, т. 11. – Л., 1937. – С. 11–17.
18. Дмитриев Н. К. Строй тюркских языков. – М.: Изд-во вост. лит-ры, 1962. – 607 с.
19. Дмитриев Н. Характеристика русских предлогов и татарских послелогов // Очерки по методике преподавания русского и родного языков в нерусской школе. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1948. – С. 61–82.
20. Закирова Х. Эргаштирувчи боғловчи воситаларнинг структур-семантик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, ТАИ, 2011. – 26 б.
21. Зейналов Ф. Служебные части речи в современных тюркских языках: Автореф. дис. ... док. филол. наук – Баку: АзГУ, 1966. – 82 с.
22. Исоқов З. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро муносабати ва унда юкламаларнинг ўрни: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Фарғона: ФарДУ, 2005. – 22 б.
23. Йўлдошева Х. Сўроқ юкламалари ва жумла урғуси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1983. – № 4. – Б. 63-67.

- 24.Каримов Ғ. “Қутадғу билик” асарида –ки (–ким) боғловчисининг ишлатилиши ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1963. – № 5. –Б. 58-60.
- 25.Каримов С. Ёрдамчи сўз туркумларининг бадий услубдаги кўринишлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент,1993. – №1. –Б. 61–66.
- 26.Каримов С. Маҳмуд Кошғарийнинг услубшуносликка доир қарашлари // Маҳмуд Кошғарийнинг «Девону луғотит турк» асари ва унинг туркий халқлар маданияти ҳамда жаҳон цивилизациясида тутган ўрни: Халқаро конференция материаллари. 2002 йил, 25–26 ноябрь. – Самарқанд, СамДУ, 2002. –Б.14–16.
- 27.Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2010. –192 б.
- 28.Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол. фан. док ...дис. – Самарқанд, СамДУ, 1994. – 292 б.
- 29.Кенжебаева Ф. Послелого и частицы в современном казахском языке: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Алма–Ата: ИЯ АН КазахССР, 1964. – 28 с.
- 30.Кобозева И. Проблемы описания частиц в исследованиях 80–х гг. // В кн.: Прагматика и семантика. – М.: МГУ, 1991. – С. 147-163.
- 31.Кулиева И. Частицы в современном азербайджанском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Баку, БГУ, 1980. – 22 с.
- 32.Ломоносов М.В. Российская грамматика // ПСС. Т.7.Труды по филологии (1739-1758) - М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1952. с.566
- 33.Мукаррамов М. Научный стиль современного узбекского литературного языка в семантико – функциональном аспекте: Автореф.дис. ... д-ра филол.наук. – Ташкент, 1985. – 44 с.
- 34.Муталлибов С.М. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк (ХИ аср ёзма ёдгорликлари асосида) – Т.: ЎЗФА нашриёти, 1959. 125-126-б.
- 35.Николаева Т.М. Функции частиц в высказывании (на материале славянских языков). – М.: Наука, 1985. –168 с.

36. Нурмонов А., Ҳақимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. – №4. – Б.54–57.
37. Пардаев А. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2011. – 160 б.
38. Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.
39. Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. – Samarqand: SamDU, 2013. – 104 b.
40. Петров Н. Частицы в якутском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Якутск: Кн. изд-во, 1978. – 23 с.
41. Расулов Р. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзларнинг семантик–грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1983. – 112 б.
42. Расулов Р. *Хоҳ...*, *хоҳ* ёрдамчисининг семантик–грамматик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1984. – №5. – Б.44–48.
43. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Самарқанд, СамДУ, 1994. – 25 б.
44. Раупова Л. Диалогик нутқнинг дискурсив талқини (полипредикатив бирликлар мисолида). – Тошкент: Фан, 2010. – 206 б.
45. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – 397 б.
46. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2008. – 285 б.
47. Содиқова М. Ўзбек тилида кучайтирув воситалар (*жуда, бир, гоят, ҳам...* юкламалари ва б. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1974. – №1. – Б.36–40.
48. Солихўжаева С. Экспрессив–эмоционал гапларнинг ҳосил бўлишида баъзи юкламаларнинг роли // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. – №1. – Б.59–63.
49. Фармонов И. Ўш шевасида *–ла* юкламаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1958. – №2. – Б. 45–47.
50. Шукуров Ш. Юкламалар тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1963. – №2. – Б.37–40.

- 51.Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 248 б.
- 52.Ўринбоева Д. Ўзбек сўзлашув нутқида ўзгармайдиган сўзлар (ёрдамчи сўзлар): Филол.фан.номз. ...дис-яси. – Самарқанд, 1994. – 150 б.
- 53.Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. – 168 б.
54. Қурбонов Т. Айирув маъносини ифодаловчи воситаларнинг айрим семантик ва стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари. – Самарқанд, СамДУ нашри, 1978. 68-б.
- 55.Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 49 б.
- 56.Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек адабий тили боғловчилари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. –№ 2. –Б.51–56.
- 57.Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 144 б.
- 58.ХIII – ХIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили (Морфология). – Т.: Фан, 1986. 264-267-б.

III. Internet resurslar

<http://www.ziyonet.uz/>

<http://www.ziyouz.uz/>

<http://superlinguist.ru>

[http://www.krugosvet.ru.](http://www.krugosvet.ru)

<http://www.twirpx.com/files/languages/linguistics>